

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

Z.M.BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi kafedrası

Qo‘lyozma huquqida

XADJIMOV DIYORBEEK ULUG‘BEK O‘G‘LI

**MILLIY G‘OYANI INSON ONGI VA QALBIGA YETKAZISHDA
JAMOAT TASHKILOTLARI VA SIYOSIY PARTIYALARNING RO‘LI**

**5111600-“Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq” ta‘lim yo‘nalishi
bo‘yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ish rahbari: katta o‘qituvchi E.Karimov

ANDIJON-2016

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-5
 I-BOB. JAMOAT TASHKILOTLARI VA SIYOSIY PARTIYALARNING IJTIMOIIY HAYOTDAGI O‘RNI VA ROLI.	
1.1. Jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi.....	6-18
1.2. Demokratik jarayonlarning chuqurlashib borish jarayonida jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalarning rivojlanishi.....	19-28
 II-BOB. MILLIY G‘OYANI INSON ONGI VA QALBIGA SINGDIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI	
2.1. Inson ongi va qalbini milliy g‘oya asosida shakllantirishning ahamiyati.....	29-46
2.2. Jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalarni milliy g‘oyani inson ongi va qalbiga singdirishdagi o‘rni va roli.....	47-61
 XULOSA.....	62-63
 FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	64-66

Kirish

Mavzuning dolzarbligi Mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda aholi turli qatlamlarining qarashlari, manfaatlari va manfaatlari mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmalari-jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalar muhim o'rin tutadi.

Istiqlol sharofati bilan O'zbekistonda jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat qurilishi tizimidagi roli va ahamiyatini tubdan kuchaytirish bo'yicha izchil, bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirildi. Shu bilan bir qatorda ular milliy g'oyani xalqimiz ongi va qalbiga singdirishda va g'oyaviy tarbiyada nihoyatda samarali faoliyat olib bormoqdalar.

Fuqarolik jamiyati sharoitida partiyalar hokimiyat tuzilmalari bilan xalq o'rtasida, davlat bilan jamiyat o'rtasida bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi. Biroq, Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "partiya degani- bu mansab uchun, lavozim uchun kurash emas, balki muayyan g'oya uchun, uning jamiyatda ustuvor bo'lishi va ro'yobga chiqishi uchun kurash demakdir. Agar partiya ma'nosini mana shu nuqtai nazardan tushunar ekanmiz, qancha partiya bo'lsa bo'laversin, ularning faoliyatiga tegishli sharoit yaratib beriladi. Ammo jamiyatni bo'lib tashlash, odamlarni bir-biriga qarama-qarshi qilib qo'yish, turli beqarorliklar keltirib chiqaradigan g'oyalar targ'ib qilinadigan bo'lsa, bunday partiyalar bizga kerak emas".¹

Siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining mavjudligi demokratik tizimlar rivojlanishining zaruriy shartlaridan biridir. Fuqoralarning o'z qiziqish va moyilligiga qarab ixtiyoriylik asosida jamoat tashkilotlari yoki siyosiy partiyalar saflarida faoliyat yuritishi mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor va mafkuraviy immunitetga ega shaxslarning salmog'i ortishiga sabab bo'ladi.

¹ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. T. "O'zbekiston", 1996 y 351 bet

Mustaqillik yillarida siyosiy partiyalarning o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun mustahkam huquqiy baza yaratildi. Bular “Jamiyat birlashmalari to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi, “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi, “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi qonunlar hamda bir qator boshqa qonun hujjatlaridir.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi va muhim manbasi. Ishni tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov asarlari metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Mavzuga oid O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, ilmiy maqolalar, risolalar, monografiyalar, matbuot va internet materiallari muhim manba bo‘ldi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan siyosiy partiyalarning faoliyatini yoritishga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy maqolalar, risolalar va monografiyalar chop qilindi.

Ularda siyosiy partiyalarning keng qamrovli faoliyati tahlil qilingan va umumlashtirilgan. Bu ishlar quyidagilar: Z.Ismoilov¹, M.Abdurahmonov², I.Saifnazarov³, M. Suvonqulov⁴, R.Kenjaev⁵, M. Quronov⁶, ⁷Abdullaev J⁷, va boshqalarning ishlaridir.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Ishda fuqarolar tarbiyasi bilan bog‘lik ijtimoiy vazifada jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalar o‘z vakolatlari doirasida milliy g‘oyani xalqimiz ongi va qalbiga singdirish rolini har tomonlama chuqur o‘rganish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan. Ushbu maqsadlardan kelib

¹ Ismoilov Z. Siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish-fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti. Fuqarolik jamiyati. 2007 y 1-son

² . Abdurahmonov M. Aholi bilan ishlash-siyosiy partiyalarning ustuvor vazifasi. Fuqarolik jamiyati. 2007y. 2 son

³.Saifnazarov I. Siyosiy partiyalar va davlat boshqaruvi organlari hamkorligi. Fuqarolik jamiyati. 2007 y 2 son

⁴ Suvonqulov M. Mahalla-qariyalarni qadrlash va yoshlarni mahnaviy tarbiyalash maskani. Fuqarolik jamiyati. 2008y 4 son.

⁵ .B Mahallalarning barkamol yosh avlod muhitini shakllantirishdagi o‘rni. Falsafa va huquq. 2010y. 1 son

⁶ M. Quronov. O‘zbek xarakteri va milliy g‘oya. T., «Mahnaviyat», 2005. // Quronov M. Milliy tarbiya. T., «Mahnaviyat», 2007.// M. Quronov. Mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi. T., «Akademiya», 2008

⁷Abdullaev J. Marzaramov B. Mahalla-faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi maskan. Fuqarolik jamiyati. 2008 y. 4 son

chiquvchi asosiy vazifalar quyidagilar:

- Jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi ochib berish;
- Demokratik jarayonlarning chuqurlashib borish jarayonida jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalarning rivojlanishi keng yoritish.
- Inson ongi va qalbini milliy g'oya asosida shakllantirishning ahamiyati tahlil qilish va umumlashtirish:
- Jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalarni milliy g'oyani inson ongi va qalbiga singdirishdagi o'rni va rolini ko'rsatish.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti va predmeti Jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi, demokratik jarayonlarning chuqurlashib borish jarayonida jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalarning rivojlanishi, milliy g'oyani inson ongi va qalbiga singdirishning dolzarb muammolari, inson ongi va qalbini milliy g'oya asosida shakllantirishning ahamiyati, jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalarni milliy g'oyani inson ongi va qalbiga singdirishdagi o'rni va roli ishning ob'ekti va predmeti xisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Ishning amaliy ahamiyati katta bo'lib, uning materiallaridan umumta'lim maktablari, kasb-xunar kollejlari va akademik litseylar hamda oliy o'quv yurtlari talabalari O'zbekiston tarixi, siyosatshunoslik va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'rganishda hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Ish-Kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraflar, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning xajmi 65 sahifani tashkil etadi.

1.1- Jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi.

O`z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va xayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro`yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma - jamoat birlashmasidir.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasiga binoan O`zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro`yxatdan o`tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e`tirof etiladi.

Konstitutsiyaviy tuzumni zo`rlik bilan o`zgartirishni maqsad qilib qo`yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ`ib qiluvchi, xalqning sog`lig`i va ma`naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi.

Jamoat birlashmalarining huquqiy maqomi - O`zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan "O`zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to`g`risida"gi qonuni¹ bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunga binoan inson huquqlari to`g`risidagi Umumiy deklaratsiyaga, O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asoslanib, fuqarolarning jamoat birlashmalarini tuzish erkinligi ularning ajralmas huquqi sifatida mustahkamlab qo`yiladi.

Jamoat birlashmalari:

- 1) fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy, huquqlar hamda erkinliklarni ro`yobga chiqarish va himoya qilish;

¹ O`zbekiston Res`ublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991, №4, 76-m.

- 2) fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish;
- 3) kasb-kor va havaskorlik qiziqishlarini kondirish;
- 4) ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish;
- 5) aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish;
- 6) madaniy-ma'rifiy, fizkultura-sog'lomlashtirish va sport ishlarini o'tkazish;
- 7) tabiatni, tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish;
- 8) vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi;
- 9) respublikalararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o'rtasida tinchlik va do'stlikni mustahkamlash;
- 10) qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadida tuziladi.

Faoliyati jamiyatning axloqiy negizlarini, umumbashariy insonparvarlik qadriyatlarini buzishga qaratilgan, shuningdek, konstitutsiyaviy tuzumni g'ayriqonuniy yo'l bilan o'zgartirish yoki O'zbekiston Respublikasi hududining birligini buzish, urushni, zo'ravonlikni va shafqatsizlikni, jamiyatni parchalashga olib boradigan ijtimoiy, shu jumladan sinfiy shuningdek, irqiy, milliy va diniy adovatni avj oldirish, qonun bilan taqiqlangan boshqa xatti-harakatlar qilish maqsadini ko'zlaydigan jamoat birlashmalarining tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Jamoat birlashmalari va ularning idoralari tomonidan qonuniy va demokratik yo'l bilan shakllantirilgan hokimiyat va boshqaruv idoralari hamda hokimiyat vakolatlariga ega bo'lganlarga nisbatan g'ayridemokratik tarzda quch ishlatib tazyiq o'tkazish taqiqlanadi Barcha jamoat birlashmalari o'z ustavlarida, boshqa hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni bajarishda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari doirasida ish ko'radilar.

Mehnat to'g'risidagi qonunlar, shuningdek, mehnatkashlarning ijtimoiy ta'minoti va ijtimoiy sug'urta qildirish to'g'risidagi qonunlar jamoat birlashmalari apparati xodimlariga nisbatan joriy etiladi.

Davlat jamoat birlashmalari huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi hamda Konstitutsiyaga muvofiq ular o'z ustavlaridagi vazifalarni bajarishlari uchun shart-sharoit yaratilishiga kafolat beradi.

Davlat yoshlar va bolalar tashkilotlariga moddiy va ma'naviy madad beradi, ularga nisbatan imtiyozli soliq siyosati o'tkazilishini ta'minlaydi, bolalar tashkilotlariga, maktab, maktabdan tashqari muassasalar binolaridan, klublardan, madaniyat saroylari va uylaridan, sport inshootlari va boshqa inshootlardan bepul yoki imtiyozli shartlar bilan foydalanish huquqini beradi.

"Yaqin kelajakda, - deydi O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlis birinchi chaqiriq birinchi sessiyasida so'zlagan nutqida; Fuqarolarning siyosiy jarayonlarda, davlat boshqaruvida qatnashuvini ta'minlaydigan huquqiy asoslarini takomillashtirishga alohida e'tibor berish zarur. Bunda men siyosiy partiyalar, birlashmalar, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari, turli xil xayriya va ijodiy jamg'armalar hamda uyushmalar faoliyatini nazarda tutyapman"¹ - degan edi.

Jamoat birlashmalari faoliyat hududiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

1) respublika jamoat birlashmalari - Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati butun respublika hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalaridir. Bunda siyosiy partiyaning kamida sakkizta hududiy subektda (viloyatda), shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan kamida yigirma ming, kasaba uyushmasining esa, kamida uch ming a'zosi bo'lishi kerak;

2) mahalliy jamoat birlashmalari (viloyat, tuman, shahar, poselka va qishloq jamoat birlashmalari).

Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati butun viloyat hududida, Toshkent shahrida esa, butun shahar hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari - viloyat, Toshkent shahar jamoat birlashmalariga kiradi.

Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati butun tuman (shahar)

¹ Karimov I.A. «O'zbekistonni siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqlolining asosiy tamoyillari». –T.: «O'zbekiston», 1995, 19-bet.

hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari – tuman (shahar) jamoat birlashmalariga kiradi.

Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati poselka, qishloq hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari - poselka, qishloq jamoat birlashmalariga kiradi.

Zarurat paydo bo`lgan hollarda viloyatlararo va tumanlararo jamoat tashkilotlari tuzilishi mumkin.

Jamoat birlashmalari ixtiyoriylik asosida jamoat birlashmalarining ittifoqlariga uyushishga haqlidirlar.

Jamoat birlashmasi kamida o`n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuziladi. Jamoat birlashmasini tuzish tashabbuskorlari ta`sis sezini (konferensiyasini) yoki umumiy yig`ilishini chaqiradilar, unda ustav (nizom, o`zga asosiy hujjat) qabul qilinadi va rahbar idoralar tuziladi.

O`zbekiston Respublikasi fuqarolari jamoat birlashmasi a`zolari (qatnashchilari) bo`ladilar. Siyosiy partiyalardan tashqari jamoat birlashmalarining ustavida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo`lmagan shaxslarning birlashmaga a`zo bo`lishlari ko`zda tutilishi mumkin.

Jamoat birlashmasi faoliyatini tartibga soluvchi asosiy hujjatlardan biri – bu ularning Ustavidir.

Jamoat birlashmalari ramz sifatida o`z timsoliga, bayrog`iga va vimpeliga ega bo`lishi mumkin. Jamoat birlashmalarining timsollari ustavga muvofiq, ularning rahbar idoralari tomonidan tasdiqlanadi. Bayroqlar va vimpellar belgilangan tartibda davlat ro`yxatidan o`tkazilishi lozim.

Jamoat birlashmasi sezd (konferensiya) yoki umumiy yig`ilish qaroriga muvofiq, yoxud qonun hujjatlarida ko`zda tutilgan asoslarda va tartibda tugatiladi.

Sezd (konferensiya) yoki umumiy yig`ilish qaroriga muvofiq tugatilgan jamoat birlashmasining mol-mulki uning ustavida ko`zda tutilgan maksad yo`lida sarflanadi.

Jamoat birlashmalari qonun oldida tengdirlar.

Jamoat birlashmalarining huquqlari quyidagilardan iboratdir:

1) jamoat birlashmalari ustavlarda, dasturiy, boshqa hujjatlarda belgilangan maqsadlar va vazifalarni amalga oshirish uchun o'z maqsadlari va faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatadi;

2) qonunda ko'zda tutilgan hollarda va tartibda esa:

a) davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarini tuzishda qatnashadi;

b) davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining qarorlarini tayyorlashda ishtirok etadi;

c) davlat va jamoat idoralarida o'z a'zolari (qatnashchilari) nomidan ish yuritadi va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qiladi;

d) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan vakolatlarni amalga oshiradi.

Jamoat birlashmalari ommaviy axborot vositalarini ta'sis etishga hamda amaldagi matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonunlarga muvofiq noshirlik faoliyati bilan shug'ullanishga xaklidirlar.

Amaldagi qonun hujjatlariga binoan jamoat birlashmalarining faoliyati ustidan quyidagi davlat organlarining nazorati o'rnatildi:

1) soliq idoralari

2) prokuratura idoralari

3) adliya organlari

Jamoat birlashmalari O'zbekiston Respublikasi qonunlariga va o'z ustavlariga muvofiq xalqaro jamoat (nohukumat) birlashmalariga qo'shilishi, bevosita xalqaro aloqalar o'rnatishlari, tegishli bitimlar tuzishlari mumkin.

Agar O'zbekiston Respublikasida tuzilgan jamoat birlashmasining faoliyati ustavga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida va bitta yoki undan ko'proq xorijiy davlat hududida amal qilsa, u xalqaro jamoat birlashmasi deb e'tirof etiladi.

O'z faoliyatini xorijiy davlat hududida ham amalga oshiradigan jamoat birlashmasi zarur o'zgartishlar va qo'shimchalar qiritilgan ustavini qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirigiga taqdim

etadi.

Tinchlikni mustahkamlashni, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni, insonparvarlik faoliyatining o`zga turlarini maqsad qilib ko`ygan jamoat birlashmalari qonunda belgilangan imtiyozlardan foydalanishlari mumkin.¹

Siyosiy partiya - O`zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro`yobga chiqarishga intiluvchi hamda o`z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko`ngilli birlashmasidir.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasiga binoan siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o`zlarining demokratik yo`l bilan saylab qo`yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o`z faoliyatlarini moliyaviy ta`minlanish manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar.

Siyosiy partiyalar o`z faoliyatlarini O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O`zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan “Siyosiy partiyalar to`g`risida”gi qonun²iga, O`zbekiston Respublikasining 2004 yil 30 aprelda qabul qilingan “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to`g`risida”gi qonun³ga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq, shuningdek, o`z ustavlari asosida amalga oshiradilar.

Siyosiy partiyalar quyidagi prinsiplar asosida tuziladi va faoliyat ko`rsatadi:

- 1) fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida, xohish-irodani erkin bildirish;
- 2) partiyaga ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish;
- 3) a`zolarining teng huquqliligi;

¹O`zbekiston Res`ublikasida jamoat birlashmalari to`g`risida»gi qonuni// O`zbekiston yangi qonunlari.4- son. T.: «Adolat», 1993, 154-bet.

² O`zbekiston Res`ublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997. №2, 36-m.

³ O`zbekiston Res`ublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004 №5, 86-m.

- 4) o`zini o`zi boshqarish;
- 5) qonuniylik;
- 6) oshkoralik.

Siyosiy partiyalarning mamlakatimiz oliy qonunchilik organi, joylardagi hokimiyat vakillik organlari faoliyatidagi roli va ta'siri sezilarli darajada ortdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasida "siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'li bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar",- deyilgan.¹

Jamiyat rivojlangan sari uning ijtimoiy hayotida siyosiy partiyalarning roli va ahamiyati, ularning siyosiy mavqei ham oshib boradi. Siyosiy partiyalar jamiyatni xarakterga keltiruvchi asosiy siyosiy kuchlardan biri hisoblanadi. Respublikamizda siyosiy partiyalar faoliyatini tartibga solib turish maqsadida Oliy Majlis tomonidan qator qonunlar qabul qilingan. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek "Mamlakatimiz parlamentiga bo'lib o'tgan saylovlar yurtimizda izchillik bilan olib borilayotgan, demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurish, bozor islohotlarini chuqurlashtirishga qaratilgan, Konstitutsiyamizda eng oliy qadriyat sifatida muhrlab qo'yilgan inson huquq va erkinliklari hamda manfaatlarini himoya qilish maqsadida amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar jamiyatimizda keng qo'llab-quvvatlanayotganini ko'rsatdi."²

Yurtboshimiz tashabbusi bilan qabul qilingan va 2008 yilning 1 yanvaridan kuchga kirgan "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun, shubhasiz, siyosiy partiyalar vakolatlari va imkoniyatlarini yanada oshirdi.

Bular: O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. "O'zbekiston" 2015 yil 12 bet

² Karimov I.A "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir" –T, "O'zbekiston" NMIU,2015.100 b.

(1996y), O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi (2004y), O‘zbekiston Respublikasining “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi (2008 y) qonunlaridir.

Sobiq tuzum davridagi yakka partiyaviylikdan so‘ng ko‘ppartiyaviylikka o‘tish uchun huquqiy asoslar yaratish zarurati yuzaga kelgani tabiiy, albatta. Bu muhim jarayon mamlakatimizda uch bosqichdan iborat bo‘ldi, desak, hato qilmagan bo‘lamiz.

Birinchi bosqich 1991-1996 yillarni qamrab oladi. Ushbu davrda siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslarini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonun ta‘minlab berdi. Unga ko‘ra, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma‘rifiy, fizkultura-sport va boshqa ko‘ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari, deya e‘tirof etilishi belgilab qo‘yildi.¹

Mazkur hujjatda siyosiy partiyalarga taalluqli quyidagi normalar mavjud: birinchidan, ularni tashkil etish va a‘zolari soni bilan bog‘liq qoidalar. Ikkinchidan, boshqa jamoat birlashmalaridan farqli ravishda, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning uni a‘zolari bo‘la olmasligi. Uchinchidan, qonunning 16 moddasida siyosiy partiyalarning vazifalari va ularning saylov jarayonida ishtirok etish shakli belgilab berildi.

Ikkinchi bosqich 1996 yil oxiridan 2007 yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ya‘ni, 1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonun O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik rivojlanishining yangi bosqichini boshlab berdi. Bu qonun avvalgi huquqiy hujjatlarda hal etilmagan bir qator masalalarni hal etishga qaratilgan edi.

¹ Bekov I. Siyosiy partiyalarning konstitutsiyaviy maqomi. XXI asr. 2009 y. 8 yanvar

Bundan tashqari, qonunda siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatish printsiplari, kafolatlari, tuzish tartibi, nizomi, ro'yxatga olish, faoliyatini to'htatish tartibi, ularning huquqlari, vakillik organlaridagi partiya fraktsiyalari, guruhlarning maqsad va vazifalari to'liq o'z ifodasini topdi.

Ikkinchi bosqichning asosiy hususiyatlaridan yana biri-bu 2004 yilning 30 aprelida qabul qilingan "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi qonun bo'ldi. Bungacha partiyalarning moliyaviy ta'minotiga oid masalalar "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonunning 15 va 16-moddalarida belgilangan normalar orqaligina tartibga solinar edi.¹

Uchinchi bosqich 2007 yildan boshlab hozirgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Jamiyatimizning turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida erishilgan marralar va yutuqlarni e'tirof etgan holda jamiyatni yanada demokratlashtirish, boshqaruvni takomillashtirish masalalarida ba'zi muhim masalalarning ahvoli va rivojlanish sur'atlarini mamlakatimiz oldida turgan ustuvor vazifalardan kelib chiqadigan talablar darajasiga ko'tarish masalasidir.

Bu davrdagi eng muhim qadam, shubhasiz, "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun bo'ldi.

Mamlakatimiz mustaqilligining o'tgan davri maboynida fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, siyosiy partiyalar demokratik jarayonlarda erkin va faol ishtirok etishi uchun zarur tashkiliy-xuquqiy asoslar yaratildi.

Taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, respublikamizda siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi huquqiy asoslari shakllandi. Siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat boshqaruvini demokratlashtiridagi rolini kuchaytirish maqsadida konstitutsiyaviy qonun, bir necha qonun va qonunosti hujatlar qabul qilindi.¹

Siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi Konstitutsiyamizning 60-moddasida

¹ Bekov I. Siyosiy partiyalarning konstitutsiyaviy maqomi. XXI asr. 2009 y 8 yanvar

¹ Olimov D. Siyosiy partiyalar faoliyatining konstitutsiyaviy kafolatlari. O'zbekiton ovozi. 2012 yil 30 noyabr

ifodasini topgan. Unga ko‘ra siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydi va o‘zlarining demokratik yo‘l bilan saylab qo‘yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadi.

“O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi mamlakatimizda siyosiy partiyalar faoliyati yo‘lga qo‘yilishida muhim huquqiy asos bo‘ldi.

Bunda “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun, shuningdek, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi asosida ishlab chiqilib, qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (78, 80, 93, 96 va 98 moddalariga)gi” qonun orqali joriy qilingan me‘yorlarni hayotga izchil tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.²

Ma‘lumki, Konstitutsiyamizning 98 moddasiga “O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini qo‘lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi” degan qoida kiritildi.

O‘tgan davr maboynida siyosiy partiyalar faoliyatiga aloqador bir necha qonunosti hujjatlari ham qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish Dasturi to‘g‘risida”gi, “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko‘maklashish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining “Siyosiy partiyalarning ustavda nazarda tutilgan faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori shular jumlasidandir.

² Olimov D. Siyosiy partiyalar faoliyatining konstitutsiyaviy kafolatlari. O‘zbekiton ovozi. 2012 yil 30 noyabr

Amalga oshirilayotgan ushbu siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning huquqiy kafolati mamlakatimiz Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan.¹

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, demokratik tamoyillar asosida faoliyat yurituvchi siyosiy partiyalarning jamiyat hayotidagi mavqei oshib borishi mamlakatimizning rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

“Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolni kuchaytirish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni 2007 yil 11 aprelda qabul qilingan bo'lib, u qonun 2008 yil 1 yanvardan kuchga kirdi, 8 moddadan iborat.

“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraktsiyalari” degan 2-moddada turli siyosiy yo'nalishlarga amal qiladigan, mamlakatning saylovdan keyin tuzilgan hukumati e'lon qiladigan va amalga oshiradigan yo'l va dasturga munosabatini turlicha belgilaydigan partiya fraktsiyalarining huquqiy maqomi aniq ta'riflangan.

“O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatasining mansabdor shaxslari saylanganidan va organlari shakllantirilganidan keyin bir oy ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraktsiyalarlarining har bir bilan va saylovchilar tashabbuskor guruhlardan saylangan deputatlar bilan maslahatlashuvlar o'tkazilgandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi va Senati ko'rib chiqishi hamda tasdiqlashi uchun taqdim etiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozini olgan nomzod O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri etib

¹ Olimov D. Siyosiy partiyalar faoliyatining konstitutsiyaviy kafolatlari. O'zbekiton ovozi. 2012 yil 30 noyabr

tasdiqlangan hisoblanadi”¹.

Joylarda ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy rivojlanish masalalarini hal qilishda siyosiy partiyalarning rolini, ularning vakillik hokimiyati mahalliy organlarini shakllantirishga ta’sirini kuchaytirish maqsadida “Viloyat, Toshkent shahar xokimligi tayinlash va tasdiqlash tartibi” degan 6-moddada “Viloyat hokimi va Toshkent shahar hokimi nomzodlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlaridagi partiya guruhlarining har biri bilan maslahatlashuvlar o‘tkazilgandan so‘ng tegishli halq deputatlari Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi” deb belgilab qo‘yilmoqda. Tegishli halq deputatlari Kengashi deputatlari umumiy sonining ko‘pchilik ovozini olgan viloyat hokimi va Toshkent shahar hokimi nomzodi tasdiqlangan deb hisoblanadi. Agar ovoz berish chog‘ida viloyat hokimi va Toshkent shahar hokimi nomzodlari tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlari umumiy sonining ko‘pchilik ovozini ololmasa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mazkur lavozimlarga nomzodlarini partiya guruhlarini bilan qo‘shimcha maslahatlashuvlar o‘tkazganidan so‘ng bir oy ichida yana ikki marta taqdim etish huquqiga ega.

Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari deputatlarining viloyat hokimi hamda Toshkent shahar hokimi faoliyatini nazorat qilish funksiyalarini kuchaytirish maqsadida 7-moddada partiya guruhlariga viloyat hokimi va Toshkent shahar hokimi lavozimiga tasdiqlangan shaxslarning qoniqarsiz faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga asoslangan xulosalar taqdim etish tashabbusi bilan chiqish xuquqi beriladi. Bunday tashabbus yetakchi partiya guruhlarini tomonidan qo‘llab-quvvatlangan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bu tashabbusini halq deputatlari Kengashi muhokamasiga kiritadi va muhokama natijalariga muvofiq qaror qabul qiladi.¹

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni. Fuqarolik jamiyati. 2007 yil 1 son, 4-5 betlar

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni. Fuqarolik jamiyati. 2007 yil 2 son, 6 bet

Siyosiy partiyalar quyidagi huquqlarga ega:

- 1) o`z faoliyati to`g`risidagi axborotni erkin tarqatish, o`z g`oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ`ib qilish;
- 2) saylab qo`yiladigan davlat organlaridagi o`z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish;
- 3) qonunda belgilab qo`yilgan tartibda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish;
- 4) partiya faoliyati bilan bog`liq yig`ilishlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni o`tkazish;
- 5) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalarini ta`sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;
- 6) O`zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalari bilan ittifoq (blok) tuzish, ular va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnoma munosabatlarini o`rnatish.

Siyosiy partiyalarning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidagi fraksiyalari - siyosiy partiyalar tomonidan ko`rsatilgan deputatlarning ta`sis yig`ilishlarida o`z partiyalarining siyosatini uyushqoqlik bilan o`tkazish uchun tuziladi. Fraksiyalar fraksiyaning rahbari bergan tegishli ariza va ta`sis hujjatlariga asosan Oliy Majlis tomonidan ro`yxatga olinadi.

Siyosiy partiya fraksiyasining rahbari Oliy Majlis Kengashi tarkibiga kiradi.

1.2 Demokratik jarayonlarning chuqurlashib borish jarayonida jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalarning rivojlanishi

O'zbekistonda keyingi o'n ikki yilda fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalar jadal shakllandi va rivojlandi. Ular mamlakatimiz aholisining keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Shuning uchun ham fuqarolik institutlari, jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalar tashkilotlarining ahamiyati borgan sari oshib bormoqda. Chunki ular demokratik qadriyatlar, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanib bormoqda, fuqarolarning o'z iqtidorini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatimizda turli manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda. Jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalar rivojlanib borgan sari ularning davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi faolligi yanada kuchaymoqda. Aytish mumkinki, jamoatchilik nazoratining ta'sirchanligi bois kishilar qalbi va ongida jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan tub ijobiy o'zgarishlarga nisbatan kechayotgan xayrxoxlik va birdamlik kayfiyati faollashmokka.

Jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalarning tashkil etilishi va faoliyat yuritishining huquqiy asoslarining o'zagi sifatida dastavval O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tilga olish o'rinlidir. Prezidentimiz iborasi bilan aytganda, „mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq Konstitutsiyamizda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga doir asosiy printsiplarning mustahkamlab qo'ilishi barcha aholi qatlamlari manfaatlarini aks ettiradigan bunday tashkilotlar keng tarmoqlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi"¹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobi jamoat birlashmalari faoliyatining konstitutsiyaviy asoslariga bag'ishlangan. Mazkur bobda jamoat tashkilotlarining turlari, faoliyat ko'rsatish tartibi, ularning davlat hokimi yati

¹ *Karimov I.A.* Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi mahruza 2010 yil 12 noyabrg'. T."O'zbekiston" NMIU 2010 42-b

organlari va mansabdor shaxslarga nisbatan mustaqil ekani kabi. Shular qatorida „Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida“, „Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida“, „O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to‘g‘risida“, „Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida“ va boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlarning qabul qilinishi ham g‘oyat muhim ahamiyatga egadir. Ular yurtimizda fuqarolik jamiyatini jadal rivojlantirish, uning odamlarimizning konstitutsiyaviy huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi rolini oshirish, hokimiyat tuzilmalari faoliyati oshkoraligini kuchaitirish va boshqaruv sohasida qabul qilshaetgan qarorlardan aholini xabardor etish kabi maqsadlarga xizmat qiladi.

Xususan, Konstitutsiyaning 56-moddasida belgilanganidek, printsiplar mustahkamlab ko‘yilgan.

„O‘zbekiston Respublikasida qonunda belgi langan tartibda ruyxatdan o‘tkazil gan kasaba uyushmalari siyosiy partiyalar olimlarning jamiyatlari xotin-qizlar, faxriylar va yeshlar tashkilotlari, ijodii uyushmalar, ommavii harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e‘tirof etildi.

Fuqarolar yig‘ini birinchi marta o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida Konstitutsiyada e‘tirof etildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida ushbu huquqiy norma belgilandi:

O‘zini o‘zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi“.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish hukuqiga ega ekanini e‘tirof etish bilan birga, siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifat shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emasligi belgilab qo‘yilgan. Asosiy qonunning 12-moddasida O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi hamda hech qaysi mafkura davlat

mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emasligi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy printsip o‘z ifodasini topgan.

Asosiy qonunning 35-moddasida har bir shaxs bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega ekani e‘tirof etilgan.

Shu bilan birga, jamoat tashkilotlariga uyushish erkinligi muayyan chegaralar doirasida amalga oshiriladi. Bunda mazkur hukuqdan jamiyatta qarshi maqsadlarda foydalanish mumkin emas. Shu jihatdan olganda, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan, konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rluk bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, mamlakatimizning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, xalqning sog‘lig‘i va ma‘naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhsagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi, faoliyati hamda maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi¹.

Hozirgi vaktida „O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to‘g‘risida“gi qonunni qabul qilish ko‘zda tutilmoqda.

Fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan masalalardan biri — inson huquq va erkinliklarining samarali ta‘minlanishi masalasidir. Shu munosabat bilan Inson huquqlari sohasida milliy harakat dasturini ishlab chiqish fursati yetganini ta‘kidlash navbatdagi taklif sifatida maydonga chiqadi.

Shu bilan bir qatorda nodavlat notijorat tashkilotlarining quyidagi masalalar yuzasidan ham faol ishtirokining asoslarini ko‘zda tutuvchi qonun hujjatlari majmuini ipglab chiqish ko‘zda tutilmoqda: sog‘liqni saqlash masalalari; atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari; aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta‘minlash masalalari; ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash masalalari; katta sotsial ahamiyatga molik boshqa masalalar.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining tabiatni muhofaza qilish borasidagi

¹ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: „O‘zbekiston“ NMIU, 2015. —40-bet.

faoliyatini amalga oshirishda *ekologik nazorat* muhim o‘rin tutadi. Ekologik nazoratni amalga oshirish jamoat tashkilotlari ekologik funksiyasining tarkibiy qismidir.

Biz fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilgan ekanmiz, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jumladan, fondlarning ahamiyati ortib boraveradi. So‘nggi yillarda „Jamoat fondlari to‘g‘risida“gi qonun va „Homiylilik to‘g‘risida“gi qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining „O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko‘maklashish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi qarori va boshqa tegishli hujjatlar qabul qilindi va ular fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim omil rolini o‘tamoqda.

Yurtimizda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining yanada jadal rivojlanishida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining „Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi qo‘shma qarori muhim ahamiyat kasb etdi.

Jamoat tashkilotlari faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasidagi ijobiy jarayonlarning tamal toshi sifatida 1991 yidda qabul qilingan „O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida“gi qonunni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Mazkur qonunda ilk marotaba jamoat birlashmasi (tashkiloti) institutiga huquqiy ta‘rif berilishi bilan birga, uni tashkil etish maqsadi, faoliyati printsiplari hamda huquq va majburiyatlar doirasi belgilab berildi. Qonunda belgilab qo‘yilgan shakllardagi har qanday jamoat tashkilotini kamida o‘n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuzish tartibi mustahkamlab qo‘yildi¹.

Qonunga binoan, ular o‘zlarining ichki tuzilmasini, maqsadi, faoliyat olib borish shakli va usullarini tanlashda hamda ustavlarini qabul qilishda mustaqil ekani belgilab qo‘yildi.

¹ O‘zbekiston Respublikasining „O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida“gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1991, — № 4, 76-modda.

Jamoat tashkilotlari manfaatlariga daxldor bo'lgan masalalar davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tegishli jamoat tashkilotlarining ishtiroki yoki kelishuvi asosida hal etiladigan bo'ldi. Shu bilan birga, davlat jamoat tashkilotlarining qonuniy manfaat va huquqlariga rioya etilishini ta'minlashi, ularning faoliyatiga har tomonlama ko'maklashishi, xususan, soliq va boshqa masalalarda imtiyozlar berishi lozimligi belgilab qo'yildi.

Oliy Majlis huzurida Jamoat fondi va Parlament komissiyasi tashkil etilgan. Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan Parlament komissiyasi o'z tarkibida nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat tashkilotlarining vakolatli vakillari bilan birga deputatlar¹, moliyaviy tuzilmalarning mas'ul xodimlarini birlashtirgan. Mazkur komissiya fuqarolik institutlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat budjetidan ajratiladigan mablag'larni ochiq, aniq va oshkora yo'naltirishni, bu mablag'larni demokratik asosda taqsimlashni amalga oshiradi.

Inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarining ta'minlanishini amalda keng va to'la ro'yobga chiqarish maqsadida tashkil etilgan va shu yo'lda faoliyat yuritayotgan Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlis vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, „Ijtimoiy fikr“ jamoatchilik markazi, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti kabi bir qator milliy institut va tashkilotlar qatorida fuqarolik jamiyati institutlarining yanada kengroq tarkibini yaratish alohida ahamiyat kasb etmoqta. Mamlakatimizda „Kamolot“ yopglar ijtimoiy harakati, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi, „Sog'lom avlod uchun“ va „Nuroniylar“ jamg'armalari, „Ijod“ fondi, Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyasi va boshqa jamoat tashkilotlari samarali faoliyat yuritmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini oshirishga hissa qo'shayotgan 200 dan ortiq qonun hujjati qabul qilindi. Biroq bu yo'lda qilinadigan ishlar hali talaygina. Chunki bunday vazifalarning dolzarb ahamiyat kasb etishi hech kimga sir emas. Jamoatchilik nazorati kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, iste'molchilar uyushmalari va shu

¹ „Deputat“ so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, „vakil etilgan“ degan mahnoni bildiradi.

kabi tuzilmalar orqali amalga oshiriladi. Bular xalqning davlat hokimiyati bilan o‘zaro muloqotini ta’minlab beruvchi „ko‘prik“dir. Bunday ko‘prikning mavjud bo‘lishi va uning mustahkamlanishi demokratik huquqiy davlat qurishni maqsad qilgan jamiyat uchun juda muhim vazifa, chunki xalqning davlat hokimiyati bilan o‘zaro muloqotining yo‘lga qo‘yilishi demokratiya uchun asosiy omil hisoblanadi.

Ma’lumki, har qanday tashkiliy tuzilmaning mohiyati va mazmuni uning vazifasi va faoliyat yo‘nalishlarida yorqin ifodalanadi. Jamoat tashkilotlarining funktsiyalari ham ularning jamiyat hayotiga nisbatan muayyan faoliyatni amalga oshirish orqali ta’sir ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi.

Mamlakatimiz Prezidenti ilgari surgan takliflardan biri — bu „Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida“gi qonunni qabul qilish taklifi. Ushbu qonunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o‘zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish kabi masalalar bo‘yicha huquqiy normalar ko‘zda tutilishi darkor.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri — bu nodavlat va jamoat tashkilotlarini rivojlantirishdir. Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarida faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilot (NNT)larining soni 6000 dan ortiqdir. Agar bu ko‘rsatkichni 2000 yiddagi holat bilan qiyoslasak, ularning soni uch barobarga ko‘payganini ko‘ramiz. Nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolik jamiyati institutlari tizimida markaziy o‘rin tutadi. Shuning uchun ularning faoliyatini rivojlantirish, mustaqilligini to‘la ta’minlash, huquq va manfaatlarini himoya qilish, faoliyatini tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnikaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan „Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida“gi qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Bu qonunni qabul qilishdan maqsad quyidagilarda ifodalanadi: NNTlarini yanada rivojlantirish; mustaqil ish yuritishini ta’minlash; chinakam mustakilligini ta’minlash; huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish; ular faoliyatini

tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish.

Kasaba uyushmalarining ijtimoiy yo‘naltirilgan funktsiyalarining mohiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: jamiyatning integratsiyalashuviga erishish; ishlab chiqarish demokratiyasini rivojlantirish orqali fuqarolik jamiyatini shakllantirish; davlatning ijtimoiy sohadagi siyosatini shakllantirishga ko‘maklashish; xalqning mehnat potentsiallarini saqlash va rivojlantirish; bozor munosabatlarini rivojlantirish, mehnat bozorini shakllantirish; inson qadr-qimmatini oshirish va mehnat an‘analarini rivojlantirish.

Hozirgi kunda deyarli barcha jamoat tashkilotlari mamlakatni demokratik yo‘nalishda rivojlantirish, muayyan sohalar yuzasidan inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan samarali nazorat o‘rnatish kabi masalalarga o‘zlarining asosiy faoliyat yo‘nalishlari sifatida qaramoqda. Jamoat tashkilotlariga birlashgan fuqarolar ular orqali o‘zlarining turli manfaat va huquqlarini amalga oshirishni ko‘zlaydi. Bunday sharoitda jamoat tashkilotlari oldiga fuqarolarning davlat ishlarini amalga oshirishdagi ishtirokini ta‘minlash hamda ularning mavjud qonunchilikka nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish va shu orqali ularni qonunga itoatkor shaxs sifatida tarbiyalash kabi yangi vazifalar qo‘yilmoqda.

Mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat qurish jarayonida fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismi hisoblangan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan biri — mahallaning o‘rni beqiyosdir. Mahalla — bu sharqona „demokratiya darsxonasi“. O‘zbekistonda fuqarolar yig‘inlari va o‘zini o‘zi boshqarish organlari — mahallalarning soni 10 mingdan ortiqni tashkil etadi. „Mahalla“ so‘zi arabcha „mahal“ so‘zidan olingan bo‘lib, „istikomat qiladigan joy“, „hudud“ ma‘nolarini bildiradi¹.

O‘zbekiston o‘z davlat mustaqilligiga erishganidan so‘ng mahalla faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi. Bunda mahallalar hayoti bilan bog‘liq ko‘p masalalar

¹ Qoraev S. O‘zbekiston viloyatlari toponimlari. /Mashul muharrir A.Muhammadjonov.— T.: „O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi“, 2005. — 37-bet.

qatorida mahalla oqsoqolini saylash tartiblari ham ipglab chiqildi.

Mahalla instituti yurtimizda ming yillar davomida sinalgan va chuqur ildiz otgan, aholini birlashtirib turadigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib kelmoqda. Masalan, Toshkentda XVIII asrda 150 ta mahalla faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, XIX asrda ularning soni 200 taga yetgan, XX asr boshlarida esa 250 ta mahalla bor edi¹. Ayniqsa, uning hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xalqimizning urf-odatlarini, an'ana va qadriyatlarini saqlab qolish, odamlarni jipslashtirish, ular o'rtasida mehr-oqibat tuyg'ularini kuchaytirish omili sifatida maydonga chiqayottanini yaqqol ko'rib turibmiz.

Mahalla o'zini o'zi boshqarish organlarining eng yorqin ko'inishi, ayni paytda fuqarolik jamiyatining asosi va tayanchi deb tan olingani bilan ham o'zining yuksak mavqeiga ega. Mustakillik yillari mobaynida jamiyatdata boshqaruv tizimlarishsh isloh qilish, davlat vazifalarini jamoat tashkilotlariga bosqichma-bosqich o'tkazish, ya'ni kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish borasidagi ipglar izchil davom ettirib kelinmokda.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti — mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur masalada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov „Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan taklifni ilgari surdi. Kiritiladigan o'zgartish va qo'shimchalarda quyidagi masalalarga alohida e'tiborni qaratish lozim bo'ladi: aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda mahallaning aniq yo'naltirilgan faoliyatini belgilash; mahallani xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish sohasidagi vazifalarni aniq belgilash; mahallaning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirish.

¹ Qoraev S. Toshkent toponimlari./Mashul muharrir A.R.Muhammadjonov./ — T.: „Fan“,1991. - 32-bet.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi — fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odat va an'analardan kelib chiqqan holda, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir.

O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining uchinchi sessiyasida 1993 yil 2 sentabrda qabul qilingan „Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida“gi qonun qishloq, shaharcha va ovullarda va ular tarkibidagi mahallalarda tuziladigan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy holatini belgilab berdi. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari — bevosita fuqarolar tomonidan saylanadigan organlardir. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi mamlakatimiz hayotida muhim o'rin tutadi. Bu saylov demokratizm, oshkoralik va teng saylov huquqi asosida o'tkaziladi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining „Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida“gi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish ehtiyeji mavjud ekanini ta'kidlash o'rinlidir. Bunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari raislari saylovi tizimini yanada takomillashtirish talab etiladi. Oqsoqollar va ularning maslahatchilari eng munosib fuqarolar orasidan saylanishi darkor. Shu bilan birga, fuqarolar ijtimoiy faolligini kuchaytirishda mahallaning roli va ahamiyatini oshirishga erishish lozim.¹

Mahalla deganimizda, avvalambor, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan va rivojlantiradigan, shu bilan birga, kelajak avlodlar qanday bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i, hayot maktabini tasavvur etamiz.

Mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatining asosiy instituti sifatida yildan-yilga takomillashib bormoqda.

Konstitutsiyaviy asosdan kelib chiqib, 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan

¹ I.A. *Karimov I.A.* Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi mahruza. 2010 yil 12 noyabrg'. — T.: „O'zbekiston“ NMIU, 2010. - 45-46-betlar

„Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida“gi (yangi tahriri) qonunning 1-moddasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish tushunchasi quyidagicha ta’riflandi: Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi — fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o‘z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma’naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odat va an’analardan kelib chiqqan holda, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir“.

Mustaqillik yillarida fuqarolarning mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining qonuniy maqomini mustahkamlashga, ularni fuqarolik jamiyatining asosiy insshtutiga aylantirishga doir jiddiy islohotlar amalga oshirildi. O‘zbekistonda mahallalar milliy mustaqillik davriga kelibgina o‘zini o‘zi boshqarish organiga aylandi. O‘zbekiston Konstitutsiyasi mahallaning maqomini fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida mustahkamladi. Mamlakatimizda shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari huquqiy maqomini oldi. Jumladan, mustaqillik davrida yurtimizda 10 mingdan ko‘proq o‘zini o‘zi boshqarish organlari shakllangan bo‘lsa, ulardan 8142 tasini mahalla fuqarolar yig‘inlari tashkil etadi.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vazifalarning bir qismini respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o‘tkazishda mahalla tizimini shakllantirish masalalariga katta ahamiyat karatildi.

2.1. Inson ongi va qalbini milliy g‘oya asosida shakllantirishning ahamiyati.

Milliy g‘oya umumxalq g‘oyasi bo‘lgani bois, u aholining turli qatlamlari ongiga singdirilishi lozim. Bunda, tabiiy, ularning alohida xususiyatlari, yashash tarzi, amal qiladigan odatlari va udumlari inobatga olinadi.

Albatta, milliy g‘oya xalqning tarixi, hayoti, ongi, madaniyati, urf-odatlar bilan bog‘langan, ulardan ayri holda shakllanmaydi. Ammo shu bilan birga u etnografik tushuncha ham emas. Haqiqiy milliy g‘oya doimo umuminsoniy mazmunga ega bo‘ladi. Zero, milliylik umuminsoniylikning mavjudlik shaklidir. Binobarin, kelib chiqishi biror xalqqa tegishli bo‘lmagan, biror-bir milliy shaklda ifodalanmagan umuminsoniy g‘oyaning o‘zi yo‘q. Umuminsoniy g‘oya — bu tor mahalliylikdan xoli bo‘lgan, boshqa mintaqalar va xalklar uchun ham foydali xisoblangan haqiqiy milliy g‘oyadir.

Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII sessiyasida (1993 yil, 6 may) so‘zlagan nutqida oldimizda turgan eng muhim masala bu — milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizga tatbiq etishdir deya ta’kidladi, — «milliy istiqlol mafkurasini xalqimizning azaliy an’analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma’rifat tuyg‘ularini ongimizga singdirishi lozim. Shu bilan birga mafkura xalqimizda o‘zining qudrati va himoyasiga suyangan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi mutaraqqiy davlatlar orasida teng huquqli munosib o‘rin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiyalamog‘i kerak»¹.

2000 yil aprelda Islom Karimov faylasuf, tarixchi, adabiyotshunos, siyosatshunos olimlar, taniqyai adiblar va jamoat tashkilotlari vakillari bilan Oqsaroy qarorgohida milliy mafkuraga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda e’tiborni mafkuraning quyidagi masalalariga qaratdi:

1. Milliy taraqqiyot masalasida har qanday davlat yoki jamiyat, albatta, o‘z milliy g‘oyasiga suyanishi va tayanishi kerak.

2. O‘tish davridagi to‘siqlar, qiyinchiliklar va xatolardan xalqimizni

¹ I.A. Karimov. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T., «O‘zbekiston», 1996, 203-b

og‘ishmay kelajak sari yetaklovchi, maqsad sari undovchi milliy mafkura zarurdir.

3. Shakllanayotgan yosh avlodni qanday g‘oya va mafkura bilan tarbiyalash masalasi hal etilmog‘i kerak.

4. Tarbiyaviy-axloqiy masalalarda, ma’naviy hayotda o‘z yo‘limizni yo‘qotmaslik uchun ham, mafkuraviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymaslik uchun ham g‘oya va mafkura kerak.

5. Milliy g‘oya va mafkura xalqimizning o‘zligini anglashiga, qadriyatlarni hurmat qilishga, milliy g‘ururni his qilishiga xizmat qilmog‘i zarur.

6. Milliy g‘oya va mafkura xalqimizning o‘tmish qadriyatlarini hisobga olgan holda yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, xalq manfaati yo‘lida xizmat qilmog‘i lozim.

7. Milliy g‘oya hech qachon davlat mafkurasi darajasiga chiqmasligi kerak.

«Shuni alohida ta’kidlamog‘chimanki, — deydi Islom Karimov «Milliy istiqdol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasiga yozgan so‘zboshisida, — milliy g‘oya va milliy istiqdol mafkurasi yurtimizda yashayotgan barcha kishilarni ma’naviy boyligiga, dunyoqarashining negiziga aylanishiga erishish biz uchun eng asosiy maqsaddir»¹.

Risolada milliy g‘oya va mafkura tushunchalari, ularning xalqlar va davlatlar tarixiga ta’siri, globallashtirish jarayonlari kechayotgan hozirgi sharoitda mafkuraning o‘rni, O‘zbekistonning o‘z milliy istiqdoli goyasi bo‘lishi zarurligi, uning asosiy tamoyillarini xalqimiz va avvalo yosh avlod qalbiga singdirish kabi masalalar muxtasar bayon etilgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, bahsli munosabatlar din va dunyoviylik masalasida ham bildirilganda, Islom Karimov quyidagi tarzda odilona yo‘lni ko‘rsatdi: «Dunyoviylik, ayrim aqidaparast kimsalarning da’vatlaridan farqli o‘laroq, aslo dahriylik emas. Biz bunday noto‘g‘ri va g‘arazli talqinlarga mutlaqo

¹I. A. Karimov. «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni — xalq, millatni — millat qilishga xizmat etsin». «Tafakkur», 1998, 2-son, 9-bet.

qarshimiz»¹. Darhaqiqat, islom dini ma'naviyatimizning tub zamiriga singib ketganini inkor etib bo'lmaydi. Milliy istiqlol mafkurasida muqaddas dinimizning insonparvarlik g'oyalari o'z ifodasini topishi zarur.

«Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asari milliy g'oya mohiyatini anglab olishda, uni milliy taraqqiyot masalalari bilan nazariy va amaliy bog'lay olishda ulkan metodologik ahamiyat kasb etdi. Milliy g'oya bilan bog'liq qaysi tushunchani, tamoyilni yoki masalani olmaylik, asarda ularning sodtsa va aniq javobini topamiz. Xususan, g'oya va mafkurani sun'iy tarzda yaratib bo'lmasligi, u xalqning tarixiy orzusi, ajdodlardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, eng ezgu orzu va intilishi, g'urur va iftixori, or-nomus va ruhiy madadkori sifatida xalq bilan doimo birga yashab kelayotgan oliy maqsad, tarixiy orzu ekani ochib beriladi. Shuningdek, milliy g'oyaning va milliy mafkuraning bo'm-bo'sh joyda paydo bo'lmasligi, milliy g'oya etnik mansubligi, tili, dini va hokazolardan qat'i nazar, shu yurtda, shu vatanda yashayotgan barcha fuqarolarning olijanob, ezgu niyatlarini, hayotiy manfaatlarini mujassam etadigan g'oya ekani kabi teran fikrlar milliy g'oyaning mazmun-mohiyatini, ijodiy-bunyodkorlik salohiyatini bilib olishida va to'g'ri talqin qilinishida katta ilmiy va metodologik ahamiyat kasb etdi.

« Shuni alohida ta'kidlash kerakki, hayot sur'atlari beqiyos darajada tezlashayotgan bir davrda, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega bo'lib borayotgan zamonda asrlar sinovidan o'tgan boy ma'naviy qadriyatlarga tayanmoq oqilona yo'ldir. «Hammamiz bilamizki, har qaysi davlatning chegaralarini daxlsiz saqlashda harbiy kuch-qudrat, qurolli kuchlar suv bilan havodek zarur. Ammo xalqimiz, avvalambor yosh avlodimiz ma'naviy olamining daxlsizligini asrash uchun biz nimalarga tayanib-suyanib ish olib

¹ I. A. Karimov. «Donishmand xalqimning mustahkam irodasiga ishonaman». «Fidokor» gazetasi, 2000, 8 iyung'.

borishimiz kerak, degan savol bugun barchamizni o‘ylantirishi tabiiy»¹.

Muallif bu vazifani shu kunning eng dolzarb vazifasi desak, hech qanday xato bo‘lmasligini e‘tirof etadi. Zero, yosh avlod «erkinlik va demokratiyani olg‘a siljitish», «ommaviy madaniyat» niqobi ostidagi, aslida esa, uzoqni ko‘zlagan makkorona siyosat va maqsadlarga, oshkora va pinhona xatarli tahdidlarga faqat mustaxkam bilim, tafakkur erkinligi, buyuk maqsad va yuksak ma‘naviyat bilangina qarqsh tura olishi mumkin.

Islom Karimov yosh avlodni mafkuraviy tajovuzlardan himoya qilish haqida fikr yuritganda, faqat ajdodlar ma‘naviy merosiga mahliyo bo‘lib yurishning o‘zi bilan uzoqqa borib bo‘lmasligi haqida hayotiy va xolisona xulosalar qiladi. Kitobda yoshlar va milliy g‘oya, milliy ma‘naviyat masalalari keng qamrab olinishi, har qanday bir yoklamaliqdan xoliligi mamlakatimizda ilgari surilayotgan barkamol avlod, komil inson g‘oyasining muttasil teran ma‘no kasb etib borayotganidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq o‘zlikni anglash va anglatishda tarixiy xotira masalasiga aloxida e‘tibor qaratilmoqda. «Yuksak ma‘naviyat — yengilmas kuch» asarida tarixiy xotira borasida ham teran ilmiy-nazariy xulosalar berilgan. Kitobda, jumladan, Turkistonning uch xonlikka bo‘linib ketishi va uning o‘ta salbiy oqibatlar borasida achchiq haqiqatlar bayon etilgan: «...Yurtimiz rivoji hamma zamonlarda ham bir tekis kechmagan... Yurt hukmdorlari va amaldorlari xalqning taqtsiri va kelajagi haqida qayg‘urish o‘rniga, o‘z shaxsiy manfaatlarini hamma narsadan ustun qo‘yib, jaholat va g‘aflatga berilib ketishi oqibatida biz bugun yashayotgan mintaqa umumbashariy taraqqiyot jarayonlaridan uzilib, rivojlanishdan keskin orqada qolib ketdi»². Muallif e‘tirof etganidek, hukmron kuchlarning uzoqni ko‘rolmasligi, ma‘naviy zaifligi oqibatida milliy jipslik, yatona maqsadga intilish, milliy taraqqiyot g‘oyasi — milliy o‘zlikni

¹ I.A. Karimov. Yuksak mahnaviyat — yengilmas kuch. T., «Mahnaviyat. T., 2016, 115-bet.

² I.A. Karimov. Yuksak mahnaviyat — yengilmas kuch. T., «Mahnaviyat. T., 2016, 51-b

anglash boy berilgani kabi tarixiy haqiqatlar bugun yoshlarimiz uchun saboq bo‘lishi kerak.

«Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch» asarida milliy g‘oyamizning, ma’naviyatimizning teran ma’naviy ildizlari «Avesto»dan boshlab xalq og‘zaki ijodi — Alpomish, xalq maqollari, Amir Temur va temuriylar davridan bugungacha yashab kelayotgan ma’naviyatimiz tadriji va rivojlanishi saxifalaridan ibratli misollar keltirilgan. Asar milliy g‘oyamizning teran tomirlarini o‘rganishda nazariy va metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

G‘oya va mafkurada xalqning hayotiy ehtiyojlari, intilishlari va maqsadlari o‘z ifodasini topadi. O‘zbek xalqi barpo etayotgan jamiyatning maqsad va mohiyati ham muxtasar tarzda milliy istiqlol g‘oyasida ifodalangan.

Insonparvarlik bilan yo‘g‘rilgan, taraqqiyotga xizmat qiladigan bunyodkor g‘oyalar qachon, qaysi mamlakatda tug‘ilmasin, tub moxiyatiga ko‘ra, umuminsoniylik kasb etadi. Shu sababdan haqiqiy bunyodkor g‘oyalar oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalari, ifoda tili va shakli bo‘yicha milliy ko‘rinish olsada, mazmun-mohiyati bo‘yicha umuminsoniy g‘oyalarni boyitadi.

G‘oya jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlash jihatidan ham muhim ahamiyatta ega. U shunday muhitni yaratish barobarida fuqarolarni yakdil, yuksak ma’naviy mo‘ljallar tevaragida yaqinlashtirib, ba’zan esa chigal iqqisodiy, siyosiy vaziyatlarni yengib o‘tishda tayanch bo‘ladi. Inson tuyg‘ulariga ulug‘vorlik baxsh etgan g‘oya uning ruhiy kamolotiga xizmat qilishi shubhasiz. Ulug‘ maqsad va vatanparvarlik tuyg‘usiga ega insonni ma’lum darajada ma’nan komil inson desak, yanglishmaymiz. Bu esa, g‘oyaning inson qadr-qimmatini ulug‘lashi yo‘li bilangina uni buyuk ishlarga safarbar etishi mumkinligini anglatadi. Islom Karimovning «Ma’naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak»¹, — degan fikri, nafaqat ma’naviyat, balki inson bilan bog‘liq barcha sohalar uchun ham birdek taalluqlidir.

¹ I.A. Karimov. Yuksak mahnaviyat — yengilmas kuch. T., «Mahnaviyat», 2016, 29-bet.

Mohiyatga yanada kengroq miqyosda qaraydigan bo'lsak, e'tirof etish kerakki, umuminsoniy g'oyaning ma'naviy e'tiqodga aylanishi va keng tarqalishi ko'plab xalqlarni yagona mushtarak mo'ljallar asosida birlashtiradi, insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Xuddi shunday umummilliy g'oya turli ijtimoiy qatlam va guruxlarni, turli hududlarda yashovchi aholini birlashtiradi.

Fikrimizcha, g'oyaning yuksak ma'naviy e'tiqodga aylanishini tahlil etish, g'oya va siyosat masalalarining munosabatiga ham oydinlik kiritadi. Ma'lumki, g'oyani mavjud siyosatning xizmatkori yoki muxolifi degan qarash-lar mavjud. Bu esa faqat siyosiy g'oyalarga taalluqli. Haqiqatan, siyosiy g'oyalar mavjud tuzumni mustahkamlashga yoki uni isloh qilishga yoki tubdan o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi. Shu bois siyosiy g'oyalar o'rtasida tez-tez bahslar, hatto keskin tortishuvlar, kurashlar bo'lib turadi. Ammo g'oyalarning fanga, tabiiy-ilmiy, falsafiy, badiiy, axloqiy va shu kabi inson ijodiy va ijtimoiy faoliyatining boshqa sohalariga taalluqlilari ham bor. Shu bois g'oyaga faqat siyosat nuqtai nazaridan yondashmaslik lozim, Biz xalq sifatida, soxta maqsadlarni zo'ravonlarcha singdirishga uringan istibdod mafkurasi tuzumini boshdan kechirdik. Minbar va shiorlardagina joziba kasb etishi mumkin bo'lgan qator yaltiroq g'oyalarning soxta ta'sirida yashab ham ko'rdik. Sinfilylikni bayroq qilib olgan, tabiatan inson intilishlari bilan hisoblashmaydigan g'oya taqdiri oqibatda qanday tugashini ham bildik. Tarixning bu saboqlaridan chiqargan xulosamiz esa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida o'z ifodasini topdi: «Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas»¹

G'oyaning insonga ta'siri haqida so'z borar ekan, uning inson qalbiga, botiniga yo'li masalasi yuzaga chiqadi. Muayyan g'oyaning inson iymoni darajasiga ko'tarilishini «Avesto», «Tavrot», «Injil», «Qur'on» va boshqa muqaddas kitoblardagi ta'limotlar asosida kuzatishimiz mumkin. Ulardagi adolat, insof, ezgulik, halollik, erk, mehr-oqibat, ilmparvarlik kabi qator muqaddas

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., 2015, 5-6.

g'oyalar o'z davrida ular targ'ib etgan dinga, ta'limotga ishongan xalqlarning iymon-e'tiqodiga, hayotining mezoni va oliy maqsadiga aylangan. Ular hamon o'z ahamiyatini yo'qotmagan, chunki umuminsoniy qadriyatlar poydevorini tashkil etadi. Bu g'oyalar o'z davrining murakkab muammolariga aynan inson qalbiga yaqinlik asosida oqilona yechim topa olgan. Xalklar esa o'z og'zaki ijodi namunalari bilan bunday g'oyalarga hamisha zamonaviylik bag'ishlab kelgan. Shuningdek, urf-odatlar, udumlar, bayramlar shaklida «moddiylashgan» g'oyalar ham oz emas. Umuman, o'zida biror ahamiyatli ezgu g'oyani ifoda etmagan rivoyat, maqol, o'git, bayram, marosim, tantana yo'q hisobi. Shuning uchun ham ular inson uchun qadri baland, ruhlantiruvchi, zarur xulosalar beruvchi ma'naviy tayanch va kuchga ega bo'lgan.

Insonning yuksak intilishlariga monand g'oyalargina san'atning barcha shakllarida o'z ifodasini topadi va shu tariqa ajdodlardan avlodlarga ma'naviy meros bo'lib o'taveradi.

Masalaning yana bir muhim jihatini nazardan qochirmaslik kerak: bu g'oyaviy bo'shliq tufayli vujudga kelgan bugungi insonning dunyoqarashi va ijtimoiy mo'ljaldaridagi ba'zi kemptik yoki xato jihatlar. Bu holatga real yondashilmas ekan, barcha tarbiyaviy harakatlarimiz natijasiz bo'lib qolishi yoxud biz kutgan natijani bermasligi mumkin. Sir emaski, mustaqillikning dastlabki yillarida mustabid tuzumning qadriyatlar tizimi tanqidiy qayta baholanishi, vulgar ateistik siyosatdan voz kechilib, madaniy merosga, Vatan tarixiga munosabat tubdan o'zgarishi jarayonida ayrim masalalarda o'ziga xos g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lgan edi. Chunki yangi qadriyatlar tizimi birdaniga tayyor va mukammal holda vujudga kelmaydi. Bu murakkab jarayon ancha vaqq talab qiladi va ma'lum ziddiyatlarni boshdan kechiradi. Natijada diniy e'tiqod, demokratiya va inson huquqlari masalalarida ba'zi ichki va tashqi muxolif kuchlar o'zlarining g'arazli maqsadlarini ko'zlab soxta, buzg'unchi g'oyalar yordamida aholining bir qismini, ayniqsa, tajribasiz yoshlarni chalg'itishga urindi. Bunday g'oyalarning ildiz otishiga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, xalqni umumiy milliy g'oya

atrofida birlashtirish dolzarb vazifa sifatida yuzaga chiqdi. Milliy g'oya zaruratining muhim tomonlaridan biri ham buzg'unchi g'oyalarga qarshi turish, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish va milliy konsolidatsiyani mustahkamlashdir. Haligacha ayrim fuqarolar tafakkurida tamoman isloh etilmagan qarashlar ham yo'q emas. O'zini ulug'vor maqsadlardan begona tutish, kasb g'ururining so'nikligi, ijtimoiy passivlik, loqaydlik, o'zida shaxs sifatlarini takomillashtirishga befarqlik, fikr tobeligi va hokazolar shular jumlasidandir, Bular aslida qaramlikka asoslangan mafkuraning qoldiq illatlari, Jamiyatdagi, aholi ongidagi qaysi bir kemtik jihatni alohida olib o'rganmaylik, o'sha sohadagi tarbiya va amaliyotda keng ma'nodagi bunyodkorlik yetishmasligining guvohi bo'lamiz. Demak, milliy istiqloq g'oyasi millatning xalq sifatidagi zamonaviy tafakkur tajribasini ham yuzaga chiqaradi; tobora teran mo'ljallarga yo'naltiradi.

... "Tabiiyki, milliy g'oyamiz shu yurtda yashayotgan barcha odamlarning olijanob niyatlarini, hayotiy manfaatlarini mujassam etadigan yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi degan yuksak tushunchalarni o'z ichiga oladi".¹ Bu jarayon mamlakatning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari va zamon talablari bilan uzluksiz takomillashib, boyib boradi. Ayni paytda, jamiyatimiz hayotining barcha yo'nalishlari va sohalarini erkinlashtirish va manfaatlar uyg'unligiga erishishga, ong va shuurni tazyiqdan, qullikdan qutultirishga ulkan ahamiyat berilishi bejiz emas. Bu jamiyatning yangi sifat xolatiga o'tishi, tom ma'nodagi tafakkur erkinligiga asoslanishini anglatadi.

Milliy istiqloq g'oyasi bilan komil inson masalasi ham uzviy bog'liq. Yosh avlod tarbiyasi mamlakat rivojlanishining real talablariga mos yondashuvni, o'ziga xos aniqlikni taqozo etmoqda. Bu aniqlikda bizning mil-lat va xalq sifatidagi zamonaviy o'zligimizni antlash darajamiz va zamonaviy taraqqiyot talablari taqozo etadigan milliy tafakkurimiz ifodalanishi kerak. Modomiki, biz qurmoqchi bo'lgan

¹ I.A. Karimov. "Yuksak mahnaviyat — yengilmas kuch". T., 2016, 72-6.

va qurayotgan kelajagi buyuk O'zbekistonning taqdiri komil inson ideali bilan bog'liq ekan, biz uni kelajak talablaridan, aniqrog'i, keng ko'lamdagi insoniyat ertasi talablaridan ajratib talqin eta olmaymiz. Komil inson xususida qanchalik boy ilmiy-ijodiy merosga ega bo'lmaylik, uni o'tmishdan nusxa ko'chirib shakllantirib bo'lmaydi. Qolaversa, har bir tarixiy davr komil insonga o'zining aniq talablarini qo'yadi. Aziziddin Nasafiy yoki uning zamondoshlari ideallaridan kelib chiqib komil insonga qo'yiladigan talablardagi umuminsoniy jihatlar, bugun ham ahamiyatini yo'qotmagan bo'lsa-da, ular XXI asr kishisi uchun juda kamlik va ma'naviy jihatdan torlik qiladi. Ba'zi jihatlari esa tarixan eskirgan, zamonaviy hayotga unchalik mos emas. Masalan, komil inson dunyoqarashi faqat islom e'tiqodiga asoslanishi lozimligi yoki insonning ba'zi zarur ehtiyojlari maksimal chegaralanishi (nafsga aylanmasligi uchun) va shu kabilar. Biroq bugungi mutaraqqiy G'arb xalqlari talqin qilganidek, individualizmni ulug'lash g'oyasiga taqlidan yo'l tutish ham to'g'ri emas. Insonning individual intilishlarini hurmat qilgan holda, uni jamoaviylikka, o'zga individlar manfaatiga qarama-qarshi qo'yish yaramaydi. Insonning o'z qadrini o'zi belgilash mas'uliyati unda eng yuksak goyalarni izlashga, ularni o'z e'tiqodiga aylantirishga rag'bat uyg'otadi.

Fikran qaram, boqimandalik kayfiyatidagi odam g'oyaviy jihatdan beqaror, befarq yoki faolligi samarasiz, xayoliy, xatolarga moyil kishidir. U ma'lum darajada boshqalar qo'lidagi qurolga aylanishi mumkin. Milliy istiqlol g'oyasi esa, bunday kimsalarni yaratuvchi shart-sharoitlarni hayotimizdan yo'qotishga, ijtimoiy jarayonlarning inson tarbiyasiga ijobiy ta'sirini kuchaytirishga yordam beradi.

Xullas, milliy g'oyaning asosiy maqsadi va tayanchi inson, uning qalbi va tafakkuridir. Istiqlol g'oyalari inson qalbi va qadrini ulug'lash yo'li bilangina uning e'tiqodidan o'rin oladi. Jamiyat fuqarolarni ulug'vor intilishlar, xususan, «Shu aziz Vatan — barchamizniki» g'oyasi atrofida yaqinlashtiradi. Turmush farovonligi va inson erkinligining o'sishiga xizmat qiladi. Insonparvarlik, taraqqiyparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik g'oyalari jamiyat fuqarolarining e'tiqodiga aylanadi. Jamiyatda sog'lom ma'naviy ehtiyoj shakllari kengaya boradi.

Fan, adabiyot, san'at va madaniyatning ahamiyati yanada ortadi.

Mazkur quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Islom Karimov mustaqillik sharoitida milliy istiklol g'oyasi masalasini kun tartibiga qo'ygan, uning mohiyatini, mazmunini, asosiy tarkibiy tuzilmasini (tamoyillari va tushunchalari), rivojlanish qonuniyatlarini ochib bergan, tahlil etgan ilk tadqiqotchidir.

2. Islom Karimov milliy istiqlol g'oyasi masalasini iqqisodiy-ijtimoiy va ma'naviy hayotni, xalq ongini, tafakkurini yuksaltirish, ayniqsa, barkamol avlodni tarbiyalash masalasi bilan chambarchas bog'lagan holda tadqiq qiladi.

3. Milliy istiqlol g'oyasi xalqning asriy orzu-intilishlari, oliy maqsadini ifodalovchi g'oya sifatida jamiyatni, barcha ijtimoiy qatlam va guruhlarni birlashtiradi, ammo u davlat maqomiga ega emas.

4. Milliy g'oyani davlatimiz rahbari O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elatlarni ulug' maqsadlar yo'lida birlashtiruvchi omil sifatida ko'radi. Uning teran, ilmiy va adolatli talqinidagi milliy istiqlol g'oyasi millatchilik va milliy mahdudliqdan mutlaqo yiroq tushuncha hisoblanib, u umuminsoniy qadriyatlarga qarshi qo'yilmaydi, aksincha, insoniyatning barcha ijobiy yutuqlariga, yangiliklarga ochiqligiga bilan xarakterlanadi.

5. Milliy istiqlol g'oyasi halqning oliy maqsadi, kelajakka intilishlarini, o'zligini, milliy manfaatlarini anglash darajasini mujassam holda ifodalaydi.

6. U quriladigan yangi jamiyatning, shakllantirilayotgan yangi insonning mohiyatini ochib beradi.

7. Jamiyatdagi barcha yaratuvchilik, bunyodkorlik ishlarini, ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat masalalarini millatning oliy maqsadlari va komil inson tarbiyasi bilan bog'laydi.

8. Jamiyat manfaatlari va shaxs manfaatlarini uyg'unlashtiradi. Milliy konsolidatsiyaga, yagona maqsad yo'lida jamiyatdagi barcha ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, etnik birliklar jipslashuviga xizmat qiladi.

Amaliyot, hayotiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ayollar erkaklarga

nisbatan, yoshlar kattalarga nisbatan ancha ishonuvchan va ta'sirga beriluvchandir. Bundan tashqari, olimlar bu xodisaning milliy-xududiy o'ziga xosliklari borligini, bu kabi xulq-atvor ayrim murakkab, tang vaziyatlarda odam irodasining bo'shashishi sifatida namoyon bo'lishini aniqlashgan. Nima bo'lganda ham, bizningcha, shaxsning tashqi tayziqlarga berilishi, tanqidsiz u yoki bu xarakter tiplariga ergashib ketaverishi individual xususiyatlarga ega bo'lib, u odamning dunyoqarashiga, mentalitetiga va ma'lumoti darajasiga bevosita bog'liqdir.

Mafkuraviy ishlar, mafkuraviy kurashlar tajribasi yana shuni ko'rsatadiki, odamlarga ataylab, qo'pol tarzda tayziq ko'rsatilsa, ularda aks javob, reaktiv qarshilik sodir bo'ladi. Agar ana shunday qarshilik bir vaqtda ko'pchilik tomonidan namoyon etilsa, bunda isyon, g'alayon paydo bo'ladi. Buni mafkuraviy ishlar texnologiyasi ishlab chiqish jarayonida albatta inobatga olmoq darkor.

Tashqi o'rab turgan muhitda sog'lom dunyoqarashning bo'lishi insondagi aqliy jarayonga, eng avvalo undagi mustaqil fikrlashning sifat va ko'rinishiga bog'liq.

Mustaqil qarashlarga ega bo'lgan insonning afzalligi shundaki, u o'z tevarak-atrofida ro'y berayotgan xodisalarga xolis baho berar ekan, tom ma'noda o'zgalar qarashlari yoki ularning xatti-xarakatlariga befarq bo'lolmaydi.

Shunday qilib, *mustaqil fikrlash* - shaxsning bevosita o'ziga bog'liq bo'lgan, uni tashqi muhitning turli ta'sirlariga nisbatan fikr-o'ylari vositasida munosabatda bo'lib, kerak bo'lsa, unga qarshilik ko'rsatish qobiliyatidir.

Mustaqil fikrning yo'qligi, afsuski, ayrim toifalar, xususan oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga tortilmagan yoshlar, ayollar o'rtasida uchrab turadi. Bunday holatda odamlarning buzg'unchi g'oyalar ta'siriga, yot mafkuralar girdobiga tushib qolish xavfi ortib boradi. Shaxsning fikrga qarshi fikr bilan, g'oyaga qarshi g'oya bilan, jaholatga qarshi ma'rifat bilan qarshilik ko'rsata olish imkoniyati torayadi. Bu, aytish mumkinki, yoshlarni mafkuraviy nuqtai nazardan tarbiyalashdagi eng katta muammolardan biridir.

Aslini olganda, aynan biz, kattalar, murabbiylar ko'p holatlarda bolalarni -

go‘dakligidan, yoshlarni - o‘spirinligidan faqat taqlid qilishga, aytilgandan chetga chiqmaslikka o‘rgatamiz. Shu taxlit ularni irodasiz, qat‘iyatsiz, o‘ziga ishonchsiz qilib qo‘yganimizni bilmay qolamiz. Bunday yoshlar xarakterlariga qarab, mustaqil fikrning yo‘qligi tufayli, nochorligi va irodasizligi uchun ba‘zan tanbeh va jazoga ham qoladi.

Yana bir bor ta’kidlash lozimki, *mustaqil fikrlash* – bu shaxsning kundalik hayotda ro‘y berayotgan voqea-xodisalarning mohiyatini, ularning sirlarini aniqlash, tahlil qilish va ajrata olishga bo‘lgan ichki qobiliyati, ruhiy tayyorligidir. Shunday psixologik xolatgina odamni o‘ylashga, mushohada yuritishga, fikrlashga undaydi.

Bu o‘rinda Uolter Lippmanning fikrini eslatish o‘rinli bo‘lsa kerak. Bu mashhur psixolog: «Hamma bir xil fikr yuritgan yerda, hech kim ko‘p o‘ylamaydi», deb ta’kidlagan edi.

Demak, aslini olib qaraganda, biz o‘z madaniyatimiz va bizni o‘rab turgan ijtimoiy borliqning hosilasi ekanmiz, vaziyatlarga bog‘liqmiz va *boshqalarning bizga ko‘rsatayotgan ta’sirlari* komida bo‘lamiz. Ayrim yoshlarning jaholat va diniy aqidaparastlikka berilishi, o‘zi to‘la anglamagan xolda turli xil buzg‘unchi g‘oya va da’vatlariga qo‘shilib ketishi, terrorizmning manfur xarakterlariga, jinoyatga sabab bo‘lgan ko‘plab voqealarga bosh qo‘shishi aynan shunday vaziyat xukmida amalga oshganligi ma’lum. Shuning uchun asosiy vazifa – har bir odamni, u vaziyatdan ham ko‘ra o‘zining shaxsiy dunyoqarashi va e’tiqodini, sog‘lom qarashlarini u yoki bu tahdidli va tahlikali yoki konfliktli vaziyatlarga qarshi qo‘ya oladigan qilib tarbiyalash kerak.

Demak, shaxsiy fikr katta ahamiyatga ega. Odamlarning turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘zlarini turlicha tutishlari, aslida ularning turlicha o‘ylashlaridan kelib chiqadi, o‘ylash, fikrlash, sovuq mulohaza yuritish san’ati milliy mafkura tarbiyasida biz kattalarga qo‘l keladigan pedagogik vositadir. Demak, pozitiv tafakkur, ijobiy fikrlash – yaxshi oqibatlarga, ijobiy natijalarga olib keladi. Agar biz farzandlarimizga “O‘z yurtiingning erkin fuqarosi bo‘l! O‘z taqdiringning

o‘zing ega bo‘l! Sen shunga munosibsan!” Prezident I. Karimov ta’kidlaganidek: Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o‘zlikni anglash mumkin emas. O‘zlikni anglash, eng avvalo, o‘tmishni o‘rganishdan, tarixni bilishga ehtiyoj sezishdan boshlanadi. desak, uning ham fikri, ham xulqi shu zaylga tushadi.¹

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, milliy g‘oyani xalqning ongi va shuuriga singdirish jarayoni har tomonlama o‘ylangan, yaxlit tizim shakliga keltirilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini nazarda tutadi.

Milliy istiqlol mafkurasi manfaatlariga monand targ‘ibot-tashviqotning uch turini farqlash mumkin:

- ilmiy;
- ommaviy;
- amaliy.

Ilmiy targ‘ibot-tashviqot asosan milliy g‘oyaning ma’no-mohiyatini jamiyat va davlat rivojlanishi an’analariga, shuningdek, xalqaro miqyosdagi rivojlanish an’analariga bog‘lab turib tushuntiradi. Bu ish konkret sharoitlarda o‘quv va tarbiya muassasalarida gumanitar-siyosiy ta’lim orqali amalga oshiriladi. Omma uchun bunday targ‘ibot-tashviqot ilmiy-ommabop tarzda tinglovchilarning yoshi, jinsi va siyosiy tafakkuri xususiyatlarini inobatga olgan tarzda amalga oshiriladi. Ya’ni, bu - quruq safsata yoki nazariylashtirilgan g‘oyalar emas, balki hayot-faoliyat, maishiy turmush tarzimiz qonuniyatlariga bog‘langan, ilmiy asoslangan targ‘ibot-tashviqotdir.

Ommaviy targ‘ibot-tashviqot orqali fuqarolar ongiga milliy g‘oyani singdirish bevosita ta’sir ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi. Bunda ta’sirchanlikning eng ommabop vositalaridan – obrazli fikrlashlar, ko‘rgazmali qurollar, vizual vositalardan, eng muhimi – voiz shaxsning imkoniyatlari, obro‘si yordamida amalga oshiriladi. Bu ishlar asosan omma bilan uchrashuvlar, Vatan-yurt taqdiri borasidagi samimiy suhbatlar, ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaning boshqa shakllari orqali amalga oshiriladi. Bu o‘rinda professional ta’lim, ommaviy axborot

¹Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. //O‘zbekiston tarixi. 1999. 1-son. 14-bet.

vositalari, ijtimoiy reklama (xalq ho‘jaligidagi yutuqlar ko‘rgazmasi, monumental targ‘ibot, muzeylar, xalqaro yutuqlar), ishlab chiqarish yangiliklari, bayramlar, ommaviy muloqot kabi tadbirlar ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Jahondagi har bir xalq va davlat o‘z yoshlarini milliy g‘oya ruhida tarbiyalagan taqdirdagina o‘z kelajagini ta‘minlashi, yuksak taraqqiyotga erishishi mumkinligi hozir hech kimda e‘tiroz uyg‘otmaydi. Jahondagi eng mutaraqqiy davlatlar tajribasi bu fikrni qayta-qayta isbotlaydi. O‘zbekiston mustaqillik yillarida yosh avlodni intellektual jihatdan kuchli, jismonan baquvvat, ma‘nan sog‘lom etib tarbiyalashga alohida urg‘u berib keldi.

Maktabgacha ta‘lim va boshlang‘ich ta‘lim tizimida bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi” va boshqa fanlar orqali milliy g‘oya ruhida tarbiyalash yo‘lga qo‘yildi. Umumiy o‘rta ta‘limning yuqori sinflarida “Ma‘naviyat asoslari va milliy istiqlol g‘oyasi” fani kiritildi. Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimi Ijtimoiy-gumanitar fanlar bloki tarkibida 2001 yildan boshlab «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani joriy etildi.

XXI asr - innovatsiyalar asridir. Mamlakatimiz kelajagi jamiyat hayotining boshqa sohalari bilan birga ta‘lim tarbiya tizimini yangi zamon talablari darajasiga ko‘tarishga yo‘naltirilgan ishlarning samaradorligi bilan belgilanadi.

Mamlakat siyosiy hayotida yoshlar o‘rni va rolining oshib borishi – avvalgi va hozirgi asrning eng muhim xususiyatlaridan biri ekanligi shubhasiz. O‘sib kelayotgan, mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan yosh avlodning siyosiy ongi va madaniyati, siyosiy faolligi va yetukligi shu yurtning qudratini, barqarorligi va istiqbolini belgilab beradi.

Tezkorlik va asosli tarzda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar quyidagilardir:

- mamlakat miqyosida mavjud siyosiy partiyalar qoshida tashkil etilgan turli nomdagi yoshlar tashkilotlariga yoshlarni kengroq jalb qilish;

- yoshlarning bo‘sh vaqtlarini unumli o‘tkazishda, ularni ish bilan ta‘minlashda, ijodiy ish bilan shug‘ullanishlarida, xorijiy tillarni o‘rganishlari uchun, Oliy o‘quv yurtlariga kirishga tayyorgarlik ko‘rishlari, kasb tanlashlari va boshqa muammolarni xalq etib borishda ularni o‘z partiya tashkilotlari qoshidagi maxsus qanot tashkilotlarga jalb qilish;
- yoshlarni Vatanga muxabbatli, sadoqatli qilib tarbiyalashda muxim o‘rin tutgan uning tarixini o‘rganish uchun respublikamizning tarixiy joylari bo‘ylab sayohatlar uyushtirish;
- yoshlarni ma‘naviyatli qilib tarbiyalash uchun milliy qadriyatlarimizga sodiqlik ruhida joylar, folklor asarlar, ularni asrab kelayotgan millat vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish;
- milliy mentalitetimizga xos ravishda, yetim-esirlarga, ojizlar, nogironlarga muruvvat ko‘rsatish ruhida yoshlarni tarbiyalash uchun “Qariyalar uylari”, “Mehribonlik uylari”, kasalxonalar, nogiron mahalladoshlarga imkon qadar mehribonlik, muruvvat yurishlari va uchrashuvlarini tashkil etish;
- kasb tanlash, mehnat va uning mashaqqati ortidagi shon-shuhratni anglab yetish maqsadida mehnat qahramonlari, o‘z kasbining ustalari, shoirlar, yozuvchilar, san‘atkorlar, ishchilar, dehqonlar, siyosiy arboblari, olimlar bilan uchrashuvlar tashkil etish va hokazolar.

Yoshlarning ilmiy-madaniy salohiyatini, iste’dodini yuzaga chiqarish uchun turli yo‘nalishdagi ko‘rik tanlov, musobaqalar tashkil etilsa siyosiy partiyalar, ularning quyi bo‘g‘inlari uchun amaliy faoliyatlari dasturlarida mujassamlansa, bu ham yosh avlod tarbiyasi, ham siyosiy partiyalarning maqsad-vazifalarini to‘la amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Xalqaro terrorizm mafkurasi va biz duch kelayotgan informatsion xurujlar, diniy aqidaparastlik, ekstremizmning xalqimiz ongi va qalbini egallashga qaratilgan urinishlari yoshlarni milliy g‘oya asosida tarbiyalash oldiga yangi pedagogik vazifalarni qo‘ymoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblarida xuddi ana shu dolzarb masalani ko‘tardi va «mafkuraviy immunitet» tushunchasining ijtimoiy-siyosiy mohiyatini ochib berdi.

Xalqaro terrorchi kuchlar birlashib, bosh ko‘tarayotgan, o‘ta makkor va yovuz uslublarni qo‘llayotgan bugungi murakkab vaziyatda tajovuz va terrorchilikning mafkuraviy zaminini yo‘qotish va avvalo, yoshlarimizning qalbi va ongi, sog‘lom tafakkuri uchun kurashni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasiga yozgan so‘zboshisida ham «Hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, o‘sib-unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ahamiyatga ega», - deb ta’kidlab o‘tgan edi.

Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ahamiyati muhim ijtimoiy-ma’naviy zarurat sifatida ortib bormoqda. Mafkuraviy ta’lim, tarbiya, targ‘ibot va tashviqot ishlariga yaxlit, kompleks yondashuv va bu jarayonni muvofiqlashtirish uchun Respublika ma’rifiy-mafkuraviy targ‘ibot ishlarini muvofiqlashtirish kengashi tuzildi. Milliy istiqlol mafkurasi - davlat mafkurasi emas. U xalqimizning yuksak orzu-istaklarini ro‘yobga chiqaruvchi ma’naviy qudrat, kuch.

Mustaqillik milliy taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida oliy ta’lim muassasalarining muhim vazifalaridan biri - talabalarni yuksak g‘oyaviylik va milliy istiqlol g‘oyasiga sodiqlik, yot mafkuralarga qarshi murosasizlik ruhida tarbiyalashdir. Zero, «O‘zini aynan shu yurt farzandi deb bilguvchi inson o‘z davlati, o‘z xalqi oldidagi, uni katta umidlar bilan tarbiya etgan, voyaga yetkazgan jamiyat oldidagi burchini ado etishi kerak». Shu sababli hukumatimizning ta’lim-tarbiyaga oid siyosatida shaxs va uning Vatan oldidagi mas’uliyatiga alohida ahamiyat berilmoqda.

Talaba dunyoqarashida sog‘lom e’tiqod, ishonch va milliy qadriyatlarning

ustuvorligi yot mafkuralarga qarshi immunitetni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi ayon bo‘ldi. Shuning uchun talabalarning g‘oyaviy taraqqiyot qonuniyatlarini tushunishlari uchun asos bo‘ladigan bilimlar:

- milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar bilan qurollantirish;
- hayot hodisalarini dunyoviylik, ilmiylik tamoyili asosida tahlil qilish va baholashga odatlantirish;

- o‘z qarashlarini himoya qilishga o‘rgatish kerak. Talabalarning mafkuraviy ongini o‘stirish lozim, toki ular buzg‘unchi mafkuralarga har doim, hamma joyda murosasiz bo‘lish, milliy mafkuraviy targ‘ibotni kuchaytirish, milliy g‘oyalarimizni amalda qo‘llashga, himoya qilishga tayyor bo‘lishlari zarur.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirish jamiyat hayotining eng nozik jihatlaridan, yoshlarning milliy his-tuyg‘ulari, maqsad va intilishlari, ma‘naviy-ma‘rifiy va ruhiy-ahloqiy darajasiga bevosita bog‘liq hodisa. Zero, mafkura shaxs tafakkuri va ruhiyati bilan bog‘liq bo‘lgan hissiyotga bog‘lansagina uni boshqaradi, yo‘lga soladi.

«Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» o‘quv fanining maqsadi yoshlarda mafkuraviy immunitetni tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, bunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarini o‘rganish muhim ahamiyatga egadir. Yurtboshimiz asarlari va uning butun faoliyati - mustaqillikni himoyalash uchun murosasiz bo‘lish, izchil va sobitlikning namunasidir.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining birinchi komponenti shaxsdir. Chin ma‘nodagi shaxs o‘zini-o‘zi qayta tarbiyalash salohiyatiga ega bo‘ladi. O‘zi va millat uchun befoyda, zararli odatlaridan voz kechadi. Millat manfaatlarini o‘z manfaati, o‘z manfaatini esa millat manfaatiga erishish sharti deb tushunadi. O‘z vazifasini millatning kuniga yarash, og‘irini yengil qilishda ko‘radi.

Mafkuraviy tarbiya borasida talaba yoshlar guruhiga alohida yondashish, tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishning samaraliroq shakllari va uslublari to‘g‘risida gapirganda, ayrim yoshlarimizning ongi va xulq-atvorida salbiy holatlarni yuzaga keltiruvchi omillar tugatilishi lozim. Afsuski, aksariyat

hollarda talabalar orasida yot mafkuralarga qarshi munosabatlarni tarbiyalash masalasi to'g'ri olib borilmayotganligini ham ko'rish mumkin.

Buning oqibatida ijtimoiy loqaydlik, siyosiy beparvolik, ma'naviy sohadagi e'tiborsizlik, mafkuraviy subutsizlik - bularning barisi milliy istiqlol g'oyasining shakllanishi va uning fuqarolar ijtimoiy dunyoqarashi va ongiga singishiga jiddiy to'siq bo'lmoqda.

XXI asr yoshlari turli-tuman mafkuralar tajovuzi kuchayib borayotgan sharoitda yashamoqdalar. Bunday vaziyatda pedagogika fani yoshlarimizda har qanday yot mafkuraviy ta'sirga qarshi muayyan munosabatni hamma joyda har doim namoyon bo'lishini ta'minlashga qodir bo'lmog'i kerak. Ushbu o'ta muhim ijtimoiy-pedagogik muammo yechilmas ekan, kelajakda yoshlarimizning yot mafkuralar ta'siriga qarshi javob qaytara olmasliklari tabiiydir. Bunga esa yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Demak, xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, talabalarda mafkuraviy immunitet vayronkor va bunyodkor g'oyalarning mohiyati, farqi haqidagi mafkuraviy bilim, uning his-tuyg'ulari, irodasi, egallagan ko'nikma va malakalari yordamida shakllanadi. Mafkuraviy ko'nikmalar bilim, faoliyat va hatti-harakatlar birligida namoyon bo'ladi.

2.2. Jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalarni milliy g'oyani inson ongi va qalbiga singdirishdagi o'rni va roli.

Yoshlarning fuqaroviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq, erkinliklarini himoya qilishga hamda ro'yobga chiqarishga, shuningdek respublika yoshlarining ijodiy faoliyatini va faolligini rivojlantirishga qaratilgan yoshlar jamoat birlashmasi bu «Kamolot» YoIH, «Iste'dod», «Ulug'bek» jamg'armalari bo'lib, ularning maqsadi yosh avlodni har tomonlama rivojlantirishga, ularni vatanparvarlik va milliy g'oya ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Ular o'z ish printsiplaridan kelib chiqib:

- yoshlarga milliy, irqiy, lisoniy, diniy mansubligi, ijtimoiy mavqei, jinsi, ma'lumoti va siyosiy e'tiqodidan qat'iy nazar g'amxo'rlik qilish;
- yoshlarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish;
- milliy, madaniy an'analarning vorisiyligi, avlodlarning ma'naviy bog'liqligini ta'minlash;
- yoshlar tashabbusini qo'llab-quvvatlash, ularning o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish yo'llarini erkin tanlab olishlarini kafolatlash;
- jamiyat taraqqiyoti dasturlari va siyosatini shakllantirish va hayotga tatbiq etishda yoshlarning bevosita ishtirokini ta'minlash;
- fuqaroviy javobgarlik, erkinlik, huquq va burchlarni birligini ta'minlash;
- barcha boshqa davlat va nodavlat, jamoatchilik tashkilotlari bilan hamkorlikda ish olib borishni yo'lga qo'yadi.

Xotin-qizlar qo'mitasi

O'zbekiston Respublikasida ixtiyoriylik asosida tashkil topgan va ayollarni huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy qo'llab quvvatlash, ta'minlashni o'zining asosiy vazifasi sifatida qabul qilgan ayollar tashkilotlari, hayotning barcha sohalarida ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi. O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi ayollarni jumladan yosh qizlarni qo'yidagi maqsadlarda birlashtiradi:

- iqtisodiy islohotlarda ishtirok etish;

- ijtimoiy va ma'naviy qo'llab quvvatlash;
- xalq xo'jaligida ayollar ahamiyatini ko'tarish;
- xokimiyat tuzilmalarida erkaklar bilan teng huquqli ishtirokini ta'minlash;
- ayollar turmushi bilan bog'liq huquqiy aktlarni tayyorlashda ayollarning ishtirokini ta'minlash.

Shulardan kelib chiqqan holda:

- ❖ O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida ta'lim olayotgan qizlarni ijtimoiy va ma'naviy qo'llab quvvatlash maqsadida qo'shimcha kurslarda ularni hayotga, oilaga, farzandlar tarbiyasiga tayyorlash.
- ❖ O'sib kelayotgan yosh qizlarni hayotga, oilaviy turmushga tayyorlashda ularning salomatligiga e'tibor berish, maxsus tibbiy ko'riklardan o'tkazib turish, zarur vaziyatlarda ularning davolanishlariga imkon yaratish.
- ❖ Yosh qizlarning huquqiy saviyasi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun huquqiy savodxonlik kurslarini tashkil etish, ushbu kurslarda o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish.
- ❖ Qizlarning ijodiy izlanishlari uchun imkoniyatlar, turli to'garaklar, kurslar tashkil etish va ularning ijod namunalarini ommaviy axborot vositalarida yoritib borish.
- ❖ Ularning siyosiy qarashlarini shakllantirish uchun turli siyosiy klublar tashkil etish va ularni ishini xalqaro, nufuzli tashkilotlar ishi ko'lamida olib borish.
- ❖ Milliy mentalitetga xoslik, milliy qadriyatlarga sodiqlik sifatlarini egallash uchun yosh qizlarni milliy hunarmandchilik bo'yicha o'quv kurslari, to'garaklarga jalb etish.
- ❖ Yosh qizlarni tashkilotchilik ruhida tarbiyalash va yo'naltirish.
- ❖ Yosh qizlarning barcha sohalar bo'yicha yutuqlarini namoyish qilish uchun ko'rik tanlovlari tashkil etish va ularni rag'batlantirishni yo'lga qo'yish.

Fahriylar tashkiloti va «Nuroniylar» jamg'armasi

Urush, mexnat, harbiy kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faxriylarining ixtiyoriy ijtimoiy tashkilotlarining o'sib kelayotgan avlodni vatanparvarlik va baynalminal ruhda tarbiyalashda ishtirokini ta'minlash uchun:

- faxriylar tashkilotlari qoshida yoshlarni jalb qiladigan turli to'garaklar, uyushmalar tashkil etish;
- ba'zi tarbiyasi og'ir yoki qarovchisi yo'q yoshlarni otaliqqa olish;
- o'z kasbiy yo'nalishlari, hunarlari bo'yicha yoshlarni qiziqtiradigan materiallarni to'plash va ular bilan tanishtirib borish,
- tomorqa, bog', poliz, kosiblik ustaxonasi, uy-muzeylari, uyda mavjud kitoblar majmuasidan kutubxona joriy etish, kichik bosmaxona, kichik fotoustaxona, eski albom kabi to'garaklar tashkil etish va ularga yoshlarni keng jalb qilish.

Kasaba uyushmasi barcha muayyan kasb xodimlarni ixtiyoriy asosda birlashtiradigan jamoat tashkilotidir. Kasaba uyushmalari davlatimiz siyosiy tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, yoshlar tarbiyasida jumladan ularni sog'lomlashtirish, ish bilan ta'minlash, turli moddiy va nomoddiy muaamolarini hal qilishda faol ishtirok etuvchi jamoat tashkiloti hisoblanadi va u bevosita yoshlar bilan quyidagi vazifalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega:

- qishki va yozgi ta'til vaqtida o'quvchi yoshlarni vaqtinchalik ish bilan ta'minlash;
- ularning dam olishlarini tashkil etish;
- bitiruvchilarni ish bilan ta'minlashga yordam berish;
- ishlab chiqarish amaliyotida ularni ish bilan ta'minlash;
- sog'lomlashtirish komplekslariga joylashtirish.

Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, “.. inson jamiyat bilan birga yashashga o'rgatadigan, shu ruhda tarbiyalaydigan birlamchi va beqiyos makon- bu mahalladir”.

Ushbu o'rinda ta'kidlash joizki, mahallasiga tayangan yurtning kelajagi

buyukdir. Mahalla-milliy va ma'naviy iqlim ko'zgidir. O'tmish olis mozmyga borib taqaluvchi bu ijtimoiy fuqarolik tuzilmasi o'zida tom ma'noda milliy va ma'naviy qadriyatlarni mujassamlashtiradi.

Mahalla instituti-O'zbekistonga xos milliy qadriyat va xalq ma'naviyatining sarchashmasi bo'lib hisoblanadi. Buning ma'nosi shuki, o'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-esirlarning boshini silash, to'y-tomosh, hashar va ma'rakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish kabilar mahalla hayotida yorqin namoyon bo'ladi. Bunday tushunchalar zamirida el-yurtimizning dunyoqarashi va ma'naviy hayotimizning negizi aks etgan. Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovi jarayonida ham mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan milliy qadriyatlarimizning noyobligi, betakrorligi va afzalliklari yaqqol ko'zga tashlanadi. Haqiqatdan ham mahalla yuksak ma'naviyat beshigidir. Chunki, yuksak ma'naviyat oila va mahallada shakllanadi. Oila va mahalla muhitida shakllangan milliy va ma'naviy qadriyatlar komil insonni istiqlol g'oyalariga sodiq ruhda tarbiyalash va millat ravnaqining eng asosiy shartidir. Shu ma'noda "Mahalla-ham ota, ham ona" degan hikmat bu hayotiy haqiqatning ifodasidir. Mahallaning ta'lim-tarbiya va urf-odat o'chog'i ekanligini nazarda tutsak, bu milliy qadriyatning naqadar yuksak ahamiyatga molikligidan dalolat beradi.¹

Mahalla aholini ahil-totuv yashashga, sidqidildan mehnat qilishga, kasb o'rganishga, shular orqali hayot kechirishga chaqiradigan noyob tuzilm, aholiga eng yaqin, qulay va ma'qul bo'lgan sevimli maskan, tarbiya o'chog'idir. Prezidentimiz tomonidan 2003 yilning "Obod mahalla yili" deb e'lon qilinishi mahallaning boqiyliqi, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan shu bilan birga kelajak nasllarning qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanligiga yana bir yaqqol misol bo'ladi.

¹ Ro'zinazarov SH. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovining mohiyati va ahamiyati. Fuqarolik jamiyati. 2008y 4 son. 4 bet

Mahallalar oilaviy nizolarni bartaraf etish, oldi-sotdi, to'y-maraka marosimlarni o'tkazish, xasharlar uyushtirish, bemorlar holidan xabar olish, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash, obodonlashtirish, jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olish, xotin-qizlar, yoshlar, voyaga yetmaganlar bilan ishlash, ular tarbiyasi va shunga o'xshash ishlar bilan shug'ullanadilar.

Prezidentimiz Islom Karimov Konstitutsiyaning 10 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida shu haqda to'htalib bunday degan edilar: "Mahalladek noyob tizim xaqida ortiqcha gapirib o'tirishga hojat yo'q, deb o'ylayman. Nega deganda har qaysi inson, har qaysi xonadan hayotida, davlat va jamiyat boshqaruvida, odamlarning boshini qovushtirish, turar joylarda tartib-intizomni mustahamlashda, o'zini o'zi boshqarish tizimni joriy qilishda mahallaning roli ahamiyati kundan kunga oshib borayotganini barchamiz ko'rib turibmiz". Qisqasi mahallaga e'tibor katta.

Xalqimizda otang mahalla, onang mahalla degan naql bor, bu bejiz aytilmagan. Unda mahallaning oilani, xususan yoshlarni tarbiyalashdagi o'rni va roli yaqqol ko'rinib turibdi.

Milliy istiqlol g'oyasi, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, bag'rikeng xalqimizning asosiy maqsad-muddoalarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini o'zaro bog'laydigan, asriy orzu-istaklarini amalga oshirish yo'lida xizmat qiladigan g'oyalar tizimidir.

Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida mafkuraviy ishlarni samarali yo'lga qo'yish katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt sha'ni kabi fazilatlarni kamol toptirishda mahallaning o'rni beqiyosdir.

Milliy istiqlol mafkurasi har birimizning o'ylarimiz, hayotga, jamiyatga munosabatimiz, xatti-xarakatlarimiz, fe'l-atvorimiz, yurish-turishimizdir.

Prezident milliy istiqlol mafkurasi masalasini o'rtaga tashlar ekan, komillikka, go'zallikka, poklikka chaqirayapti va butun jamiyatni 275 millionlik oilamizning har bir a'zosini ana shunday katta maqsad va g'oya bilan yashashga da'vat qilayapti.

“Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” degan naqlga amal qilib, kelajak avlodni tarbiyalash va unga tarbiya berish jaraynini amalga oshirish borasida mahallaning oldida quyidagi vazifalar turadi:

- tarbiya muassasalari bilan birgalikda ta’lim tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlarni muhokama qilishda qatnashish va oqilona yechimlarni topishda faollik ko‘rsatish;
- o‘z xududidagi ijtimoiy-iqtisodiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni qo‘llab-quvvatlash, farzandlarining bilim va tarbiya olishlariga bosh-qosh bo‘lish;
- ota-onalar orqali bolalarga tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g‘urur, vatanparvarlik, milliy odob, onglilik, baynalmilallik kabi hislatlarni singdirishni har tomonlama rag‘batlantirish;
- mahalla yig‘inlarida milliy davlatchilik va milliy mafkura g‘oyalarini, respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda erishilgan yutuqlarini targ‘ib qilish borasida turli tadbirlar tashkil qilish;
- “Ma’naviyat va ma’rifat”, “Sog‘lom avlod uchun”, “Ekosan”, “Kamolot” Yo.I.X, “Nuroni” jamg‘armalari, xotin-qizlar qo‘mitasi, turli jamiyatlar birlashmalari va ijodiy uyushmalarni yosh avlodni milliy istiqlol g‘oyalari asosida tarbiyalash ishiga bu sohadagi muammolar yechimini topishga faol jalb qilish;
- Mahalla xududidagi o‘quv tarbiya muassasalari bilan birgalikda turli ko‘rik tanlovlar, sport musoboqalari, anjumanlar, bayram va bellashuvlar tashkil qilish;
- Iqtidorli o‘quvchi bolalarni maktablar tavsiyasiga ko‘ra ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;
- Farzandlarga ta’lim-tarbiya berishda ijobiy natijalarga erishayotgan, namunali oilalar tajribasini ommalashtirish, mahalla xududida “Oila saboqlari” mashg‘ulotlarini tashkil etish;
- Har bir yosh fuqaroda O‘zbekistonga, uning tabiatiga muhabbat, tarixiga qiziqish, mahalla obodonligi, ahilligi uchun javobgarlik ruhini shakllantirish.

Yoshlar ongida va ularning dunyoqarashida jiddiy ma’naviy yetuklikka erishish uchun mahallalarda g‘oyaviy –tarbiyaviy ishlarni mutassil kuchaytirib

borish zarur.¹

Bayramlarda va turli uchrashuvlarda mahalla faollari o‘quvchilar bilan ahloq, odob, vatanga muhabbat, insoniy burch va madaniyat haqida sermazmun suhbatlar o‘tkazadilar. Ma’naviyat, madaniy-ma’rifiy tadbirlarning shakl va turlari rang-barangdir. 1998 yilning “Oila yili”, 1999 yilning “Ayollar yili”, 2000 yilning “Sog‘lom avlod yili” deb e’lon qiinishi mahallalarimiz faoliyatini yanada boyitmoqda. Yangi asrning birinchi yili “Onalar va bolalar yili” deb e’lon qilinishi munosabati bilan mahallalarda xotin-qizlar komissiyalari, yoshlar bilan ishlash komissiyalari ishtirokida oila to‘g‘risidagi qonunlarning ahamiyati, onalik va bolalikni muxofaza qilish, sog‘lom avlodni voyaga yetkazish, oilalarning totuvligi, xotin-qizlarning jamiyat va oiladagi o‘rni muammolariga bag‘ishlab o‘tkazilayotgan tadbirlar ko‘paydi. “Mahalla oiladan boshlanadi”, “Oila va nikoh”, “Qaynona ham ona”, “Ayol, oila va jamiyat”, “Ibratli kelinchak”, “Oilada bola tarbiyasi”, “Eng yaxshi mahalla”, “Eng ibratli oqsoqol”, “Mahalla jonkuyari”, “Eng tadbirkor mahalla oqsoqoli” shiori ostida har yili mutassil ko‘rik tanlov o‘tkazilib kelindi.

Yoshlar tarbiyasi mahallalarning jonajon ishidir. Yosh avlodni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashda mahallalar faol ishtirok etmoqdalar.

Mahalla-avvalo sog‘lom ijtimoiy muhit maskanidir. Bu yerda kuchli ta’sirga ega bo‘lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining hulq-atvori, o‘zaro munosabatlarini adolat va ma’naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Mahallada keng jamoatchilik o‘rtasida mafkuraviy ishlarni samarali yo‘lga qo‘yish uchun imkoniyatlar mavjud. Milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt sha’ni uchun kurash kabi fazilatlarni kamol topshirishda mahallaning o‘rni beqiyos.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining barkamol yosh avlod ma’naviyatni shakllantirishdagi o‘rnini birinchidan, mahalladagi har bir voyaga yetib keladigan bolalarning sog‘lom va baquvvat bo‘lishiga e’tibor berish, ikkinchidan bolalarning sog‘lom va baquvvat bo‘lishi, ularning spirtli ichimliklar

¹ Jalilov Sh. Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari. T. “O‘zbekiston” 2001y. 90-91 betlar

va narkotik moddalardan saqlanishining oldini olish, uchinchi jinoatchilikning kamayishi va ularning oldini olish, to'rtinchidan, mahalla nufuzini hamda O'zbekistonda sportning rivojlanishi va taraqqiy etishi, mahalla muhitida voyaga yetgan har bir inson o'z mahallasi, qolaversa Vatanining gullab-yashnashi, ravnaqi uchun munosib hissa qo'shishi hamda jamiyatda o'z o'rnini topishga intilishi bilan izohlash mumkin. Jumladan, boks bo'yicha jahon chempionlari buxorolik Abbas Atoev va andijonlik Muhammadqodir Abdullaev, kurash bo'yicha jahon chempioni buxorolik Akobir Qurbonov, surxandaryolik Abdulla Tangriev,, shaxmat bo'yicha jahon chempioni toshkentlik Rustam Qosimjonovlar mahallada tarbiya topgan.²

Prezidentimiz Islom Karimov 2016 yilni "Sog'lom ona va bola yili" deb e'lon qildi. Demak, ezgu maqsad-muddaolar-kuchli davlat, erkin fuqarolik jamiyati va farovon hayot qurish, dunyoda hech kimdan kam bo'lmay yashash uchun jamoatchiligimiz, xalqimiz, yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish va ularni o'z halqi va Vataniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilish lozim.

Mahalla insonlarni ma'naviy, siyosiy, shuningdek huquqiy tarbiyalashda ham boshqa davlat va nodavlat tashkilotlariga nisbatan alohida mavqega ega, chunki mahalla aholiga eng yaqin tashkilot hisoblanadi.

Mahallaning vujudga kelishi bilan uning tarbiyaviy ahamiyati, ya'ni insonlarga nisbatan tarbiyaviy ta'siri bir vaqtda shakllangan. Mahallaning tarbiyaviy ta'siri shundaki, insonni komil va yetuk bo'lib yetishishida asosan oilaviy muhit katta o'rin egallaydi, mahalla esa mazkur oilaviy muhitga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ichki va tashqi muhit ta'siri insonni shakllantirishda juda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash kelajak avlod, yoshlarimiz qo'lida. Yoshlar – bizning tayanchimiz, ertangi kundan umidimiz,

² Kendjaev R. Mahallalarning barkamol yosh avlod muxitni shakllantirishdagi o'rnini. Falsafa va xuquq. 1 son 2010y. 30 bet

savob ishlarimizning davomchilaridir.

Hamмамiz ham bu dunyoda farzandlarimizni deb, ularning baxt-saodati, iqboli deb yashaymiz va mehnat qilamiz. Nafaqat xavfsizligimiz, shu bilan birga milliy uygʻonish gʻoyasining amalga oshirish, davlatimizning kelajakda baqaror boʻlishi ham yoshlarimiz qanday shakllanishiga bevosita bogʻliq.¹

“Yoshlarni maʼnaviy pok, aqlan sogʻlom, jismonan baquvvat etib tarbiyalashda nafaqat davlat idoralari, balki nodavlat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, diniy tashkilotlar, xususan fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari ham oʻz zimmalariga maʼsuliyatli vazifalarni olishlari va bu borada saʼy-harakatlar qilishlari lozim”.

Respublikamiz mahallalarida, mahallalar boʻlmagan qishloq, shaharcha va ovullarda mahaliy aholini maʼnaviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash, ularni ijtimoiy-maishiy muammolarni hal etish, ayollarga va yoshlarga koʻmak berish, turli diniy-ekstremistik guruxlar taʼsiridan yoshlarni asrash, ular oʻrtasida maʼrifiy tadbirlarning eng taʼsirchan uslublarini qoʻllagan holdi faoliyat yuritish maqsadida diniy maʼrifat va maʼnaviy ahloqiy masalalar boʻyicha maslahatchi lo vazimi joriy etildi.

Mahallalardagi diniy maʼrifat va maʼnaviy- axloqiy masalalar boʻyicha maslahatchining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Har bir yoshning oʻzi-bir dunyo. Biz farzandlarimiz ongiga ona yurt manfaati, xalq ozodligi, mamlakatimiz obodligi eng muqaddas qadriyat ekanini singdira borishimiz, ularni komil insonlar qilib voyaga yetkazishimiz zarur, toki begona gʻoya ularning ongini egallab olmasin.

Mahalla-tarbiya beshigi hisoblanadi. Har bir shaxs mahallada shakllanadi. Shunday ekan yoshlarga eʼtibor-kelajakka eʼtibordir. Yoshlarimizni koʻz qorachigʻiday asrash, ularni insonparvarlik va sahovat ruhida tarbiyalash har birimizning burchimizdir. Yoshlarning maʼnaviy-ruhiy jihatdan qayta qad

¹ Karimov I.A. Oʻzbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Toshkent: “Oʻzbekiston” 1996. 3t. 48b

rostdashining jo‘shqin o‘chog‘i bo‘lgan eng olijanob ma’nodagi mahalla, qo‘ni-qo‘shnichilik, o‘zaro yordamlashuvning ahamiyatini ko‘proq qadrlash maqsadga muvofiqdir.

Donishmandlarning “Mahallang-ota-onang”. “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” kabi naqlari bejiz emas albatta.¹

Farzandlarimizning huquqiy savodxonligini oshirish, ularning bilim olishlari hamda to‘g‘ri kasb tanlashlari borasida zaruriy tavsiyalar berish maqsadida har oyda bir marta mahalla yoshlari o‘rtasida huquq-tartibot organlari xodimlari ishtirokida uchrashuv-muloqotlar o‘tkazilib turiladi.¹

Bugungi globallashuv davrida yoshlarimiz ongida milliy-ma’naviy qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimizga qiziqish hamda xurmatni shakllantirish, ayniqsa, qizlarimizni har tomonlama hayotga tayyorlash, odo-ahloqli qilib tarbiyalash nafaqat ota-onalarning balki, barchamizning oldimizda turgan muhim vazifadir.

Darhaqiqat, xalqimizda “Mahalla- ham ota, ham ona” degan xikmatli naql bor. Shu boisdan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari ehtiyojmand oilalarni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda, yosh oilalarga har tomonlama ko‘mak berish, yoshlarning dunyoqarashi va tafakkurini kengaytirish, ularni tarbiyalash mas’uliyatini ham zimmalariga olishlari juda muhimdir. Mahalladagi har bir oilaga o‘z oilamiz, har bir bolaga o‘z farzandimiz deb qarajak, shu nuqtai nazardan ishlasak oilalar mustahkamligiga va farovonligiga hamda yurtimiz ravnaqiga hissa qo‘shgan bo‘lamiz.¹

Mamlakatimizda istiqlolning ilk yillaridan boshlab mahalla tizimi faoliyatini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘tgan yillar davomida fuqarolik jamiyatining muhim bo‘g‘ini sifatida shakllangan mahallada aholini bandligini ta’minlash, ma’naviy muhit barqarorligini yuzaga keltirish, osoyishtalikni saqlash,

¹ Suvonqulov M. Mahalla-qariyalarni qadrlash va yoshlarni mahnaviy tarbiyalash maskani. Fuqarolik jamiyati. 2008y 4 son. 37-38 betlar

¹ Ergasheva H. Har bir oila-mahalla nigohida. Oila davrasida. 2012 y 18 oktyabr

¹ Ergasheva H. Har bir oila-mahalla nigohida. Oila davrasida. 2012 y 18 oktyabr

ijtimoiy muhofaza, yoshlarning qadim qadriyatlar va urf-odatlar ruhida kamol topishi kabi qator dolzarb, ustuvor vazifalarni bajarishda Andijon viloyatida mavjud 868 ta mahalla, 94ta qishloq, 6ta shaharga 652 fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ularda faoliyat ko‘rsatayotgan 652 nafar rais, 500 kotib, 395 ta maslahatchi va 400 ga yaqin posbonlar ham astoydil xarakat qilib kelmoqdalar.

“Sog‘lom ona va bola yili” Davlat dasturi ijrosini ta‘minlash maqsadida, davlat organlari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda fuqarolar yig‘inlari qoshida ota-onalarning yosh avlodni tarbiyalash bo‘yicha huquqiy, tibbiy bilimlarini oshirish maqsadida “Ota- onalar universitetlari” tashkil etildi. Mahalla yoshlari o‘rtasida bolalar sportini rivojlantirish maqsadida “Futbolimiz kelajagi”, “Mahallamiz pahlavonlari” sport musobaqalari o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi.¹

Tanlovda yig‘inlarning barkamol avlodni tarbiyalashda “Oila-mahalla-ta‘lim muassasasi” o‘rtasidagi hamkorlik, bandlik muammolarining hal etilishi, tadbirkorlik va oilaviy biznesning yo‘lga qo‘yilishi, jinoyatchilikning oldini olish, obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish ishlarining tashkil etilishi, shuningdek, yig‘inlarning fuqarolarning hududdagi ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligini ta‘minlashdagi rolini yanada oshirish yuzasidan olib borayotgan amaliy ishlarga munosib baho berildi.

Mustaqillik tufayli **mahallalarning** yaratuvchilik qudratiga, ma‘naviy-mafkuraviy, tarbiyaviy kuchiga ishonch, e‘tibor ortdi. Mahalla-milliy qadriyatlarimizning umuminsoniy fazilatlarimizning, moddiy, ma‘naviy ehtiyojini qondirishning markazi sifatida yuzaga chiqdi.

Mahalla, turar joylarda bolalar, yoshlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish bugungi kunnig zaruriyatidir. Yoshlarni oila bag‘ridan uzoqlashishlariga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Yosh avlod milliy urf-odatlarimiz, madaniyatimiz, udumlarimiz bilan uyg‘un tarbiya topishlari kerak. Ma‘naviy va jismoniy jihatdan baquvvat, ona Vatanidan fahrlanish tuyg‘usiga boy

¹ Sofoev A. Mahalla-qadrdon dargoh. Xorazm haqiqati. 2012 yil 14 noyabr

bo'lgan avlodni tarbiyalash o'quv muassasalari, oila va albatta mahalla hamkorligida amalga oshiriladi.

- Yoshlarning mahalladagi to'y-marakalarda, ommaviy sayllar, bayramlarda ishtiroki asosida mahallada o'zini tutish, kattaga hurmat, kichikka izzatni o'rgatish, yaxshi-yomon kunlarda yelkadoshlikni his qilishni o'rgatish orqali milliy g'oyaning asosiy tamoyillaridan bo'lgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarga to'g'ri munosabatlarni shakllantirish.
- Mahalla bilan hamkorlikda yoshlar bilan ishlashda ularning yoshiga qarab ish olib borish maqsadga muvofiq:
- 13-16 yoshdagi o'smirlarning qiziqishini hisobga olgan holda ularning yoshiga, intilishiga mos keladigan mehnat faoliyatiga jalb etish;
- 16 yoshdan yuqori yoshlarning mustaqil fikrlashga erishishlarini ta'minlash, ularni tanlagan kasblari bo'yicha ish bilan ta'minlash, bilim olishlariga imkon yaratish, iqtisodiy mustaqillikka erishishlariga va mustaqil oila qurishlariga ko'maklashish.
- Shaxsning har tomonlama kamol topishini ta'minlash uchun yoshlarda quyidagi fazilatlarni shakllantirish:
- jismonan, aqlan sog'lom, umuminsoniy madaniyat darajasi yuqori, zamonaviy kasbga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash;
- vatanparvar, insonparvar va xalq xo'jaligini rivojlantirishni ta'minlay oladigan avlodni yetishtirish;
- yoshlarning mahalliy sharoit talab qiladigan hunar, kasb egallashga va zamonaviy ilm-taraqqiyot asosida ishlab chiqarishni tashkil etishga o'rgatish;
- mahalla yoshlarining milliy sport turlari bilan shug'ullanishlarini ta'minlash va xalqaro sport turlarini egallab, ularni jahon darajasiga olib chiqishni ta'minlash;
- kelajak avlodni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash;
- yoshlarda o'z tarixi va madaniyatini chuqur egallash va boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmat qilish kabi xislatlarni shakllantirish;

- milliy, mahalliy urf-odatlar, anʼanalarga rioya qilish, boshqa millat urf-odatlariga hurmat bilan qarash, millatning urf-odatlari va anʼanalarini oʻzaro boyitishga intilishni taʼminlash;
- isteʼdodli yoshlarni aniqlab, ularning kelajakdagi iqtisodiy faoliyatlariga koʻmaklashish;
- insonparvarlik meʼyorlarini shakllantirish, ularda mehribonlik, bir-birlarini tushunadigan, shafqatli, irqiy va milliy kamsitishlarga toqatsizlik fazilatlarini singdirish;
- dunyoviy fikrlar, ulugʻ ajdodlarimiz merosiga alohida munosabat, uni oʻrganish, oʻz xalqiga, davlatiga, uning himoyasiga hamisha shay boʻlib turishga, davlat ramzlariga sadoqatli qilib tarbiyalash;
- kelajak hayotimizda sogʻlom turmush tarzi uchun intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi boʻlishga intilish;
- Yoshlarni har tomonlama kamol toptirish uchun mahalla qoʻmitalari qoshida «Oila, oʻquv muassasasi va jamoatchilik kengashlari»ni tashkil etish.

Bola tarbiyasida, oʻzbek milliy anʼanalari tarixini oʻrganishda **mahalla oqsoqollari kengashi** alohida oʻrin tutadi. Ular quyidagi ishlarni olib borishi maqsadga muvofiq:

- oʻquv yurti maʼmuriyati bilan ota-onalar majlislarini uyushtirish, taʼlim tarbiya jarayoniga oid muhim masalalarni muhokamaga olib chiqish, ularning yechimlarini topish va amalga oshirishda faol qatnashish;
- mahallada huquqiy tarbiyaga eʼtiborni kuchaytirish va qonunlarga ongli yondashish hislatlarini singdirib borish, sud, prokuratura xodimlari bilan uchrashuvlar, ochiq sudlar oʻtkazish kabi tadbirlarni uyushtirish;
- sud, prokuratura, adliya va militsiya xodimlari bilan mahalla koʻchalarida, jamoat joylarida reydlar, suhbat, munozaralar, davlat-huquq qonunlari hamda davra suhbatlarini oʻtkazish;

- jamoa mulkini ehtiyot qilish, bironing mulkiga hiyonat qilmaslik, elektr quvvatini, gazni iqtisod qilish, qog‘oz, metal parchalarini hamda jamoat joylaridagi jihozlarni asrab-avaylashga o‘rgatuvchi ishlarni olib borish;
- xomiylar va mahalla aholisining yordamida «Mehribonlik»-fondini tashkil etib, muhtoj oilalar, nogironlar, qariyalar ahvolidan xabar olish va uy-ro‘zg‘or ishlarini bajarishga yordam berishga yoshlarni jalb etish;
- odobli, axloqli bolalarning ota-onalarini rag‘batlantirish, ularning tajribasini ommalashtirish, «Ota-onangga katta rahmat», «Ustozingga rahmat», «Odobingga balli» ko‘rgazmalarini tashkil etish;
- mahallalarda qizlar hayosi, ibosi, turmushga, hayotga tayyorgarligi haqida baxs-munozaralar, ko‘rik tanlovlari o‘tkazish;
- mehnat qahramonlarini taklif qilib, ular ishtirokida hunarli, qobiliyatli yosh yigit qizlar musobaqasini uyushtirish va g‘oliblarni rag‘batlantirish;
- sog‘lom avlodni o‘stirish maqsadida sanitariya va gigiena ishlariga e‘tiborni kuchaytirish, xasharlar uyushtirish, tozalik, tartib, ko‘kalamzorlashtirishga e‘tibor berish, «Sog‘ tanda-sog‘lom aql» mavzuida suhbatlar, uchrashuvlar, nazorat tashkil etish, shifokorlar reyдини tashkil etib mahallada sog‘lomlashtirish maydonchalarini tashkil etish.

Madaniyat muassasalari

Keng tarmoqli madaniyat muassasalarining faoliyatiga Madaniyat va sport ishlari vazirligi rahbarlik qiladi. Fan va jamiyatning texnik rivojlanishi bo‘yicha faoliyatni Fan va texnologiyalar markazi boshqaradi. Bundan tashqari shaxsning fan bilan, texnik ijod bilan shug‘ullanishi va mavjud madaniy merosdan foydalanish huquqini amalga oshirishga yordam beradigan ham davlat, ham nodavlat shakldagi, boshqa organ va muassasalar tarmog‘i mavjud.

- Respublikada tashkil etilgan «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazi, O‘zbekistonning yangi tarixini o‘rganish markazi va boshqa tashkilotlar qoshida aynan yoshlarga o‘z kasbiy yo‘nalishlari, o‘z fan, san’at

yoʻnalishlari boʻyicha ilmiy-texnik va ijodiy uyushmalar, davlat bolalar ijod uylari, turli ilmiy-tadqiqot muassasalarini tashkil etish.

- Ushbu tashkil etilgan muassasalarni zarur asbob-uskunalar, materiallar, pedagog-muxandislar, adabiyotlar bilan taʼminlashni yoʻlga qoʻyish.
- Reja asosida ularni ijod namunalari koʻrgazmalarini muntazam tashkil etib borish.
- Maxsus nizom yoki koʻrsatma asosida oʻquvchi yoshlarning ijodiy ishlarini baholish, ragʻbatlantirish va chet ellarda tashkil etiladigan xalqaro koʻrgazma, koʻrik tanlovlarga ularning ishlarini yoki oʻzlarini tavsiya etish.

XULOSA.

Istiqlol sharofati bilan O'zbekistonda siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat qurilishi tizimidagi roli hamda mavqeini oshirish maqsadida izchil islohotlar olib borilmoqda. Buning samarasi o'laroq, mamlakatimizda ko'p partiyaviylik tizimi vujudga keldi va takomillashmoqda.

Siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi. Fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi va siyosiy madaniyatini oshirishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish masalalariga e'tibor kuchayib bormoqda. Ijro hokimiyati tizimini shakllantirishda ham siyosiy partiyalarning roli ortmoqda. Siyosiy partiyalardan saylangan deputatlar joylarda ijro xokimiyati organlarini shakllantirish jarayoniga ta'sir ko'rsatish, ularning faoliyatini nazorat qilishda faol ishtirok etish uchun xuquqiy mexanizmlar yaratildi. Siyosiy partiyalarning mavqei orta boshladi.

Milliy g'oyani o'rganish, fuqarolar, ayniqsa yoshlar ongiga singdirishda insoniyat oldida turgan globallasuv jarayonini e'tiborga olish o'ta muhimdir. Mafkuraviy globallasuvning avj olishida xalqaro elektron axborot tizimi hisoblangan internetning o'rni katta bo'lmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, globallasuv yangicha tarzdagi mafkuraviylashtirish bilan uzviy ravishda olib borilmoqda. Dunyo informatsion chegaralardan mahrum bo'lib qoldi¹.

Hozir turli usullarda olib boriladigan mafkuraviy targ'ibot va tashviqotning asosiy maqsadi ham inson qalbi va ongini egallash uchun kurashdir. Mafkuraviy globallasuvning o'ziga xos salbiy jihatlari ham borligini yodda tutish kerak.

Shunday sharoitda fuqarolar, ayniqsa yoshlarni ana shunday tajovuzkor g'oyalarni targ'ib etuvchi vositalardan asrash juda muhim ahamiyat kasb etadi. g'oyaviy-mafkuraviy globallasuv tufayli sodir bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy holatlardan ozod bo'lish, axborot espantsiyasidan qutilish bir davlat yoki bir millat vazifasi emas. Uni o'zaro hamkorlik va hamjihatlikdagina hal etish mumkin. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida bunday salbiy holatlarga qarshi himoya

¹ «Jahon adabiyoti», 2003, noyabr. 124-bet.

vositalari ishlab chiqilgan. Bu himoya vositalari tizimida milliy g`oya alohida o`ringa va ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, siyosiy partiyalarni konstitutsiyaviy e'tirof etish ular huquqiy institutsiallashtiruvining shakllaridan biri bo'lib, ushbu jarayon zamonaviy demokratik davlatlar hayotida partiyalar rolining o'sishi va huquqiy davlatning ehtiyojlari bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1

- 1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. “O‘zbekiston” 2015 yil 12 bet
- 2.Karimov I.A. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Toshkent: “O‘zbekiston” 1996. 3t. 48b
- 3.Karimov I.A “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir” –T, “O‘zbekiston” NMIU,2015.100 b.
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. T. “O‘zbekiston”, 1996 y 351. bet.
- 5.Karimov I.A. «O‘zbekistonni siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari». –T.: «O‘zbekiston», 1995, 19-bet
- 6.Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi mahruza 2010 yil 12 noyabrg‘. T.”O‘zbekiston” NMIU 2010 42-b
- 7.I.A. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi mahruza. 2010 yil 12 noyabrg‘. — T.: „O‘zbekiston" NMIU, 2010. - 45-46-betlar
- 8.I.A. Karimov. O‘zbekiston: milliy istiqbol, iqtisod, siyosat, mafkura. T., «O‘zbekiston», 1996, 203-b
- 9.I. A. Karimov. «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni — xalq, millatni — millat qilishga xizmat etsin». «Tafakkur», 1998, 2-son, 9-bet.
- 10.I. A. Karimov. «Donishmand xalqimning mustahkam irodasiga ishonaman». «Fidokor» gazetasi, 2000, 8 iyun
- 11.I.A. Karimov. Yuksak mahnaviyat — yengilmas kuch. T., «Mahnaviyat. T., 2016, 51-b

- 12.Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. //O'zbekiston tarixi. 1999. 1-son. 14-bet.
- 13.Ismoilov Z. Siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish-fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti. Fuqarolik jamiyati. 2007 y 1-son
- 14.Abdurahmonov M. Aholi bilan ishlash-siyosiy partiyalarning ustuvor vazifasi. Fuqarolik jamiyati. 2007y. 2 son
- 15.Saifnazarov I. Siyosiy partiyalar va davlat boshqaruvi organlari hamkorligi. Fuqarolik jamiyati. 2007 y 2 son
- 16.Suvonqulov M. Mahalla-qariyalarni qadrlash va yoshlarni mahnaviy tarbiyalash maskani. Fuqarolik jamiyati. 2008y 4 son.
- 17.M. Quronov. O'zbek xarakteri va milliy g'oya. T., «Mahnaviyat», 2005. //
- 18.Quronov M. Milliy tarbiya. T., «Mahnaviyat», 2007.// M. Quronov. Mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi. T., «Akademiya», 2008
- 19.Abdullaev J. Marzaramov B. Mahalla-faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi maskan. Fuqarolik jamiyati. 2008 y. 4 son
- 20.O'zbekiston Res'ublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991, №4, 76-m
- 21.O'zbekiston Res'ublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi qonuni//
- 22.O'zbekiston yangi qonunlari.4- son. T.: «Adolat», 1993, 154-bet.
- 23.O'zbekiston Res'ublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997. №2, 36-m.
- 24.O'zbekiston Res'ublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004 №5, 86-m.
- 25.Bekov I. Siyosiy partiyalarning konstitutsiyaviy maqomi. XXI asr. 2009 y 8 yanvar
- 26.Olimov D. Siyosiy partiyalar faoliyatining konstitutsiyaviy kafolatlari. O'zbekiton ovozi. 2012 yil 30 noyabr
- 27.O'zbekiston Respublikasining “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni. Fuqarolik jamiyati. 2007 yil 1 son, 4-5 betlar
- 28.O'zbekiston Respublikasining “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada

demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni. Fuqarolik jamiyati. 2007 yil 2 son, 6 bet

29.O'zbekiston Respublikasining „O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1991, — № 4, 76-modda

30.Qoraev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. /Mashul muharrir A.Muhammadjonov.— T.: „O'zbekiston milliy entsiklopediyasi", 2005. — 37-bet.

31.Qoraev S. Toshkent toponimlari./Mashul muharrir A.R.Muhammadjonov./ — T.: „Fan",1991. - 32-bet

32.Ro'zinazarov SH. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovining mohiyati va ahamiyati. Fuqarolik jamiyati. 2008y 4 son. 4 bet

33.Jalilov Sh. Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari. T. "O'zbekiston" 2001y. 90-91 betlar

34.Kendjaev R. Mahallalarning barkamol yosh avlod muxitni shakllantirishdagi o'rni. Falsafa va xuquq. 1 son 2010y . 30 bet

35.Suvonqulov M. Mahalla-qariyalarni qadrlash va yoshlarni mahnaviy tarbiyalash maskani. Fuqarolik jamiyati. 2008y 4 son. 37-38 betlar

36.Ergasheva H. Har bir oila-mahalla nigohida. Oila davrasida. 2012 y 18 oktyabr

37.Sofoev A. Mahalla-qadrdon dargoh. Xorazm haqiqati. 2012 yil 14 noyabr

38.«Jahon adabiyoti», 2003, noyabr. 124-bet.

39.<http://www.ziyonet.uz>

40.<http://www.lex.uz>

41.<http://www.kitoblar.uz>

42. <http://www.gov.uz>

43. <http://www.edu.uz>